

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O'RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI**

**FARG'ONA DAVLAT UNIVERSITETI**

**JISMONIY MADANIYAT FAKULTETI JISMONIY MADANIYAT NAZARIYASI VA  
USLUBIYOTI KAFEDRASI**

**JISMONIY TARBIYA VA SPORT BILAN SHUG'ULLANISHGA TA'SIR  
ETUVCHI OMILLAR  
(Ilmiy omma bop risola)**

**Farg'ona -2016**

**Mazkur risola, keng omma uchun mo'ljallangan bo'lib, sport va jismoniy mashg'ulotlar bilan qiziquvchilarni rejali , nazariy qurollangan holda sog'lom turmush tarzini targ'ib etish va unga amal qilishi uchun materiallarni o'zlashtirishiga ko'mak beradi.**

**Tuzuvchi:** t.f.n., J.T.Mamasaidov

**Taqrizchi:** b.f.n. , S.Isroiljonov

## Kirish

Jismoniy tarbiya va sport mashg‘ulotlarining asosiy maqsadi organizmni sog‘lomlashtirish hamda jismoniy rivojlantirishga qaratilgan bo‘ladi. Bitiruv malakaviy ishda jismoniy tarbiya va sport bilan shug‘ullanishda organizmga salbiy va ijobiy ta’sir etuvchi omillar va ularni bartaraf etish masalalari tahlil etildi.

Sport tibbiyoti - meditsina fanining yangi tomoni hisoblanadi. U kundan kunga rivojlanib bormoqda, amaliy va nazariy qismlari boyib bormoqda va yangi o‘ziga xos usullari rivojlanayotir. “Sport tibbiyoti” termini mamlakatimizda 1985 yillardan boshlab paydo bo‘ldi. YAngi termin bu faoliyatni kengaytigan holda, sifat jihatdan yaxshilanishga olib keldi. Ayniqsa keyingi o‘n yillarda sport tibbiyoti juda rivojlandi. Sportchilarni doimiy nazoratini ta’minalashda muhim ahamiyat kasb etdi. Xuddi mana shu tibbiyot sportchilarni doimiy mashq qilishi va samarali ish yuritishiga zamin yaratdi, desak aslo mubolag‘a bo‘lmaydi. YAngi yo‘nalish paydo bo‘ldi va bu sportchilarni samarali mashqlarini ta’minaldi.

Bizga ma’lumki, jismoniy tarbiya va sport-jamiyatda muhim ahamiyat kasb etgan holda, insonlarni har tomonlama rivojlanishida muhim omildir. U sog‘liqni saqlash, uzoq umr ko‘rish, ish faolligini oshirish, kayfiyatni ko‘tarish kabi muhim omillarga ta’sir ko‘rsatadi. Ularning barchasi jamiyatni sog‘lomlashtirishda g‘oyat katta o‘rin tutadi. Demakki, bu sohada o‘ziga xos kuchli mutaxassislar talab etiladi. Sportni samarali rivojlanishi, insonlarni sog‘lom turmush tarzi muhim ahamiyat kasb etadi.

Trener va jismoniy tarbiyachilarga muhim vazifa-insonlar sog‘ligi tarbiyasi yuklatiladi. SHuning uchun ular doimo shuni yodda saqlashlari lozimki, turli xatolar, ya’ni tartibsiz mashqlar, zo‘riqib mashq qilish holatlari ayrim hollarda sportchilar organizmida kuchli salbiy o‘zgarishlarga olib kelishi mumkin.

Jismoniy tarbiya o‘qituvchisi-o‘qituvchining o‘ziga xos turidir. CHunki uning mutaxassisligi boshqa o‘qituvchilar vazifalaridan tubdan farq qiladi, uning sohasi g‘oyaviy-ilmiy, sport-pedagogik, ruhiy, tibbiy biologik qarashlar bilan chambarchas bog‘liqidir. Bularning barchasini tartibli amalga oshirilishi samarali ish faoliyatini yuritishning ahamiyatli jihat bo‘lib qoladi. Sportchilarni qayta tiklash haqida so‘z yuritar ekanmiz, dastlab shu so‘zga aloqador bo‘lgan bir necha jihatlar bilan tanishib chiqamiz. Tibbiyot - insonlarni sog‘ligini saqlash, uzoq umr ko‘rishlari, maqsadida amaliy va nazariy bilimlardan iborat tizimdir.

Sport tibbiyoti-esa tibbiyotning bo‘limlaridan biri bo‘lib, jismoniy mashqlar davomida insonlar organizmini jismoniy rivojlanishi, o‘sishi, o‘zgarishi va unga jismoniy mashqlarning ta’sirini o‘rganishdan iborat maxsus bo‘limdir. Uning yana bir asosiy maqsadi-insonlarni garmonik rivojlantirishda jismoniy tarbiyalanishning ahamiyatini oshirish, kishilar sog‘ligini tiklash va saqlash, faol hayot kechirishda xizmat qilishdan iborat. Trener va shifokorning

birgalikdagi faoliyati muhim ahamiyat kasb etadi. Trenerni tibbiyotni sport bo‘limini bilishi esa mashqlarni to‘g‘ri, faol, aniq, samarali tashkil etishda qo‘l keladi. SHuningdek, Sport tibbiyotining vazifalari xilma-xil bo‘lib, ularga asosan quyidagilar kirdi.

- sportchilar organizmini jismoniy rivojlanishi sog‘ligini ta’minlashni o‘rganish;
- Sportchilar organizmini funksional holatini, mashqlarni bajara olishlari xususiyatlarini o‘rganish;
- Mashqlar davomida paydo bo‘ladigan shikastlar, latlarni davolash, birinchi yordam ko‘rsatish usullarini har birini o‘rganish;
- Har bir sportchilarni mustaqil bajarish rejimi, tartibini, sport faolligini oshirishda norma maqsadlarini o‘rganish;

Bu vazifalar umumiy bo‘lib, ular o‘z navbatida bir qancha yana vazifalarga bo‘linadi. Respublikamizda bu asosan Mustaqillikka erishganimizlan so‘ng rivojlandi. Bu borada hali ko‘plab muammolar uchrab turibdi. CHunki, bu sohada mutaxassislarning etishmasligi, o‘zbek tilidagi adabiyotlarning yo‘qligi kabi sabablar bir qator muammolarni keltirib chiqarmoqda.

### **Jismoniy tarbiya va sport mashg‘ulotlarining organizmga ta’siri va ahamiyati**

Yurtboshimiz I.A.Karimov sportni rivojlantirishda juda katta e’tibor bermoqdalar. O‘zbekistonda sportni rivojlantirish to‘g‘risida bir necha qonunlar va farmonlar, davlat dasturlari qabul qilindi. Bu sohani rivojlantirishga ko‘plab mablag‘lar ajratilmoqda. Bularning barchasi respublikamizda sportni har bir turini rivojlantirishga alohida e’tibor berib kelayotganligidan darak beradi. Endilikda har bir joyda o‘ziga xos sport muassasalari tashkil qilindi va ular muhim ahamiyat kasb etib bormoqda. Trenerovkalar va musobaqalardan so‘ng organizmni normal ish faoliyatini qayta tiklash-sportning asosiy bo‘limlaridan hisoblanadi. Organizmda jismoniy og‘irlilik asosan charchashni vujudga keltiradi. CHarchash-o‘ziga xos fiziologik holat bo‘lib, bajarilgan ishdan so‘ng paydo bo‘ladi. SHuningdek, uni keltirib chiqaruvchi asosiy ta’sir-

zo'riqish mashq qilishdir. CHarchash asta sekin tarqagach, qayta tiklash faoliyati boshlanadi. Qayta tiklanish organizmni ishni bajarguncha bo'lgan holatiga qaytarishimizdan iboratdir. CHarchash, uning davomiyligi, qayta tiklanishning tez va sekin borishi asosan uchta omilga bog'liq hisoblanadi, ya'ni :

- 1) Bajarilgan ishga (uning davomiyligi, hajmi, ruhiyati, xarakteriga)
- 2) Trenerovka qilayotgan shaxsning holatiga (yoshi, sog'ligi, trenerovka qilish darajasi, individual xususiyatlari)
- 3) Atrof muhitga va tartib, ya'ni rejimning og'ir-engilligiga.

Trenerni charchash va qayta tiklash holatlarini boshqara olish samarali mashq olib borishni ta'minlaydi. CHarchashni to'planishi esa charchash holatini rivojlanishi, mashq bajarishi faoliyatini susayishiga olib keladi, natijada sport natijalarini pasayishini keltirib chiqaradi.

Qayta tiklanishni asosan ikki turi bor: dastlabki qayta tiklanish, kechki qayta tiklanish.

Dastlabki qayta tiklanish-engil nafas olish, normal holatga qaytish, zo'riqish charchashdan keyingi avvalgi holat hisoblanadi.

Kechki qayta tiklanish - organizmga energatik resurslarni to'la qaytishi, ish faoliyatini to'la bajara olish holatlari hisoblanadi.

Qayta tiklanish jarayonida muhim fiziologik jihatlar asta-sekin charchashni yo'qolishi va ish faolligin kuchayishi bilan xarakterlanadi. Sportchilar organizmini qayta tiklanishi ham murakkab jarayon hisoblanadi. SHuning uchun ham, har bir sportchi o'zini qayta tiklanishida muhim chora tadbirlarga ahamiyat bermog'i talab etiladi. Sportchining tez qayta tiklanishi-samarali sportchi ekanligidan darak beradi.

Qayta tiklanishning asosiy jarayonlaridan biri - ratsional mashq qilish, sog'lom turmush tarzi, gigiena qoidalari amal qilishdir. Qayta tiklanish tabiiyligiga organizmni chiniqtirib borish talab etiladi. Albatta, bularning barchasi sportchilarni har tomonlama chiniqib, mashqlar va musobaqalardan so'ng tez qayta tiklash tadbirlarini beradi. Har bir sportchiga o'z trener o'qituvchilari sportning eng muhim ajralmas qismi bo'lgan qayta tiklanish qoidalarni tubdan tahlil qilgan holda o'rgatib borish talab etiladi. Bu har bir sportchi uchun eng muhim mashg'ulot bo'lishi shart hisoblanadi.

**Umumiy patalogiya**—bu patalogik jarayonlarning umumiy qonuniyatları haqidagi, ularning bosh yoki asosiy belgilari, organizmning individual xususiyatlari, atrof muhitning maxsus sharoitlari, tekshiruv uslublarini o'rganishdir.

Umumiy patalogiyani o'rganish talabalar uchun juda ham zarur. CHunki umumiy patalogiyani bilgan holda talaba o'z sog'ligidagi o'zgarishlar va uning oldini olish uchun vaqtida shifokorga murojat qila oladi. SHifokor esa talabaning sog'ligini tekshirib, shikoyati bo'lmagan holatda ham uning tayanch-harakat apparatidagi normadan siljishlarni aniqlaydi va sport bilan

shug‘ullanish bu kasalga mumkin yoki yo‘qligi, yuklamalar engillashtirilishi zarurligi haqida xulosa chiqaradi.

Sport va jismoniy tarbiya bilan shug‘ullanish davrida bo‘ladigan jarohatlar va kasalliklarning oldini olish maqsadida “kasallik nima?” qanday sharoitlarda u rivojlanadi? “sog‘lik nima?”, tushunchalarini bilish zarurdir. Sog‘lik- bu organizmning shunday holatidirki, bunda u biologik to‘liq (butun), ishga qobiliyatli, barcha organ va sistemalarning funksiyasi uyg‘unlashgan, og‘riqsiz faoliyatidir. Sog‘likning asosiy belgisi bo‘lib, organizmning tashqi muhit sharoitlariga (adaptatsiya) moslashuv darajasi, jismoniy va psixoemotsional yuklamalarga moslashuv darajasidir.

**Kasallik**-bu normal holatning patalogik holatga aylanish jarayonidir. Norma bu organizm hayot faoliyatini tashqi muhit sharoitiga moslashgan holda fiziologik jarayonlarni o‘zgarishini optimal holatda gomeostatik reguliyasiya (boshqaruvni) o‘z-o‘zini boshqaruvning ishlashidir.

Kasallikning kechishiga qarab o‘tkir, nim o‘tkir va surunkali turlarga bo‘linadi. O‘tkir kasallik birdaniga boshlanib simptomlar darhol keskin rivojlanadi. Nim o‘tkir nisbatan sekinroq rivojlanadi. Surunkali kasallik ko‘p oylar va yillar davom etishi mumkin. Kasallik tushunchasi patalogik holat va patalogik jarayonni o‘z ichiga oladi.

**Patalogik jarayon** bu-organizmning og‘riqli ta’sirga reaksiyasi bo‘lib, uning asosida organ funksiyasining buzilishi yoki strukturasining buzilishi yotadi. **Patalogik holat**-patalogik jarayonning oqibati davomi bo‘lib, uzoq davom etadi. Masalan: Revmatizm.

**Patogenoz**-bu kasallikning yuzaga kelishi, rivojlanishi va kechishi haqida o‘rganadigan bo‘limdir. Kasallik kechishida quyidagi davrlar farqlanadi.

1-yashirin yoki latent, 2-prodromal yoki boshlang‘ich, 3-kasallikning rivojlanish davri, 4-kasallikning tugallanish davri. (sog‘ayish surunkali shaklga o‘tishi asorati yoki o‘lim).

**Assimiliyasiya** –organizm uchun zarur moddalarni tashqi muhitdan qabul qilishi; moddalarning to‘qimalar uchun zarur birikmalarga aylanishi, hujayraning sintezi, fermentlar sintezi va eskilar o‘rniga almashinushi sodda birikmalardan murakkab birikmalarning sintez qilinishi; zahiralar to‘planishidir.

**Dissimiliyasiya**- bu tirik materia bo‘linishi (erishi) jarayonlarining yig‘indisidir.

Organizm zapaslarining mobilizasiyasi; murakkab birikmalarining sodda birikmalarga bo‘lishi; qarigan to‘qima va hujayra elementlarining erishi; energiyaga boy birikmalar bo‘lishi va energiya chiqishi; erish maxsulotlarini organizmdan chiqarilishidir.

**Distrofiya**-bu hujayra va to‘qimalarda modda almashuvining buzilishi natijasida uning strukturasi (tuzilishi) o‘zgarishidir. Distrofiyaning kelib chiqishiga quyidagilar sabab bo‘lishidir. Hujayraning autoregulyasiyasining buzilishi natijasida energetik difitsit yuzaga kelishi va hujayralardagi fermentativ jarayonlarning buzilishi; trofikaning (oziqlanishning) transport

sistemasi ishining buzilishi natijasida gipoksiyaning kelib chiqishi va trofikaning buzilishi kelib chiqishi; trofikaning endokrin yoki nerv regulyasiyasining buzilishi. **Distrofiya:** parenximal, mezenximal va aralash turlarga; oqsil, uglevod, yog‘ va mineral almashuvining distrofiyasiga; ortirilgan naslga o‘tuvchi; umumiy va joyli turlarga bo‘linadi.

**Atrofiya**-to‘qima (hujayra) oziqlanishining buzilishi natijasida (organ) va to‘qima hajmining kichrayishi va funksional faolligining pasayishidir.

**Gipertrofiya**-organ hujayralarining hajmi va soni ko‘payishi hisobiga organning kattalashuvidir.

**Gipertrofiya vikar**-(juft organlardan biri funksiya qilmay qo‘yganida); gormonal; xaqiqiy (organning parenxima elementlari soni va o‘lchovining ko‘payishi);

**Kompensator**-(organizmdagi qandaydir etishmovchilikni kompensatsiya qiluvchi organning ish faoliyati kuchayishi natijasida bir qismi yoki butunlay kattalashuvi; yolg‘on gipertrofiya (organning oraliq to‘qimasining o‘sishi yoki organ atrofidagi kletchatkaning o‘sishi hisobiga kattalashuvi); regeneratsion (organ bir qismining zararlanishi yoki kesib (rezeksiya) tashlanishi natijasida organning xaqiqiy gipertrofiyasi (qismi); fiziologik (tabiiy, haqiqiy gipertrofiya, og‘ir jismoniy ish bilan shug‘ullanuvchilar va sportchilarda organ funksiyasining oshishi natijasidagi gipertrofiya).

Patalogik gipertrofiya asosida yurak muskulining qon bilan ta’minlanishining yomonlashuvi, distrofik o‘zgarishlar natijasida yurakning qisqarish qobiliyatining pasayishiga va sportchi ish qobiliyatining pasayishiga olib keladi. Issiq va nam o‘lka sharoitlarida tayyorgarlik ko‘rish vaqtida sportchi organizmida suv va mineral almashinuvi buziladi. Bu kislota –ishqoriy, elektrolit va suv-tuz muvozanati buzilishida namoyon bo‘ladi. (gomeostaz)

**Kislota-ishqoriy holat** (KIH) organizm suyuqliklarining hajmi, rN va tuzilishi doimiyligida hujayralarning normal funksiyasini ta’minlab beradi. Eritmalarning kislotaliliga yoki ishqoriyligi NQ konsentratsiyasiga bog‘liq, NQ oshishi eritmani kislotali, NQ kamayishi esa ishqorli qiladi. Hujayradan tashqari suyuqlik engil ishqoriy bo‘lib, uning rN i 7,35 - 7,45 atrofida.

**Suv-tuz almashinuvi**: suv va elektromitlarning hujayra tashqarisi va hujayra ichida bo‘linib tarqalishi, hamda organizm va tashqi muhit o‘rtasida tarqalish jarayonlarining yig‘indisidir.

**Suv-elektrolit gomeostozi**-organizmning hujayra ichi va hujayra tashqarisidagi suyuqliklarning osmotik hajmi va ion muvozanatining doimiyligini reflektor mexanizmlar yordamida ishlab turilishi.

**Suv balansi**-organizmga tushayotgan va undan chiqarilgan suvlarning taqsimoti-nisbati

**Nekroz**—tirik organizm qismining o‘lishi, uning elementlari faoliyatining qaytarilmas to‘xtatilishidir. Nekroz –infarkt miokard va gangrena kasalliklarida uchraydi. Lekin nekroz boshqa jarayonlarning hosil qiluvchi elementi bo‘lishi ham mumkin.

Masalan: yallig‘lanish, allergiya, virusli gepotit, difteriya va boshqalar;

**Qon aylanishining buzilishlari:** 2 turga bo‘linadi.

Umumiy yoki markaziy va joyli yoki periferik–ba’zi organ va to‘qimalarning mayda tomirlarida qarshilikning oshishi natijasida qon oqimining buzilishi. Qon aylanishining buzilishini aniqlovchi omillar quyidagilardir; yurakning zararlanishi, o‘pka, ko‘krak qafasi va diafragmaning zararlanishi natijasida yurak kameralarining qon bilan to‘lishining buzilishi; skelet muskuli va bog‘lov apparati zararlanishi natijasida venalar orqali yurakka qon kelishining buzilishi; endokrin bezlari zararlanishi natijasida tomirlar devorining elektrolit almashinuvi va arteriol bosimning o‘zgarishi; buyrakning miya va po‘stloq qismlarining zararlanishi natijasida renin va prostoglandin sistemasi orqali arterial bosimning o‘zgarishi.

Qon aylanish sistemasiga arteriola va venulalar spazmi qon oqimiga qarshilik ko‘rsatishi bilan ta’sir qiladi. Qonni ivish sistemasi buzilishi, shaklli elementlar xususiyatining buzilishi, shaklli elementlar va plazma orasidagi taqsimotning o‘zgarishi ham qon aylanishiga ta’sir qiladi.

Tomirlar sistemasida qon aylanishini nerv va gumoral yo‘l bilan boshqariladi. Qon aylanishining regulyasiya mexanizmi buzilganida kompensator mexanizmlar ishga solinadi. Kompensatsiya mexanizmlariga tomirlar (teshigining) kanalining o‘zgarishi, qonning zahira organlarida to‘planishi, kollateral qon oqimi, venoarterial reaksiya (mayda arteriya va arteriolalarning spazmi qon (qaytishining) venada qon oqimining qiyinlashuvi

**Giperemiya**-mikrotsirkulyator sistemasiga qon kelishining ko‘payishi (arteriol giperemiya) yoki qonning vena orqali oqishining susayishi natijasida periferik sistemaning qaysidir qismida qon to‘liqligining oshishidir. **Arterial giperemiya turlari:** ishchi (funksional), postishemik; kollateral (ishemiya o‘chog‘i atrofida); yallig‘lanishdagi giperemiya.

**Venoz giperemiya**-qon aylanishining patalogik o‘zgarishidir. Bunda venalarda qon oqimining buzilishi kuzatiladi. Kichik qon aylanish sistemasida shunt arteriol giperemiya bo‘lishi mumkin, bu holat bo‘lmachalararo yoki qorinchalararo defekt bo‘lganida chapdan o‘nga qon o‘tishi bilan hosil bo‘ladi. Bunda o‘pkaga venoz qon bilan birgalikda arteriol qon ham kelishi kuzatiladi. O‘pka arteriyasi (yirik shoxlari) elastik va elasto mushak tipdagi yirik shoxlari kengayadi, muskul tipidagi tomirlar torayadi. Bu jarayonlarning bir vaqtda ro‘y berishi natijasida kichik qon aylanish doirasi gipertenziysi yuzaga keladi.

Har qanday organdagi uzoq vaqt davom etuvchi arterial giperemiya tomirlarning yorilishiga, qon ketishiga va to‘qimaning shishiga olib keladi. Venoz giperemianing

(asoratlariga) oqibatida venalarning varikoz o‘zgarishi, to‘qimalarning gipoksik zararlanishi, qonning shaklli elementlarining buzilishi, limfo aylanishining buzilishi yuzaga keladi.

**Staz**-bu tomirlarda qon oqimining sekinlashuvi yoki to‘xtashi: qon tomir tashqi tomondan ezelganida, kanali taroyishi natijasida va boshqalar. Gemostaz va limfostazlar farqlanadi.

**Limfostaz** –limfo harakatining mexanik, dinamik yoki rezorbsion etishmovchiligi natijasida limfa to‘xtab qolishi (tiqilib)

**Qon oqishi**-qon tomirlaridan qonning chiqishi jarayonidir. Qon quyilishi - ichki qon ketishi oqibatidir-qonning to‘qimalar va bo‘shliqlarda to‘planishidir. Morfologiyasi bo‘yicha qon qo‘yilishi 3 turga bo‘linadi; 1) gematoma bo‘shliq hosil qilib qon quyilishi; 2) gemorragik infiltrat to‘qimaning qon bilan ivishi (to‘lishi); 3) petexiya va ekximoz-tochkali qon quyilishi.

**Qon oqishi-3 xil sababi bor:** 1) tomir devorining yirtilishi (yorilishi); (yupqalashuvi) 2) emirilishi, 3) tomir devori zararlanmasdan-diapedez yo‘li bilan. Tomirning yorilishi (yirtilishi) ko‘pincha gematoma rivojlanishi bilan birga kechadi, bunda ivigan yoki suyuq qon saqlovchi bo‘shliq hosil bo‘ladi.

Diapedez yo‘li bilan qon oqishi venulalardan va kapillyarlardan oqadi. Gipoksiya, avitaminoz, intoksikatsiya, qon ivishining buzilishi natijasida tomirlarning tonusi va o‘tkazuvchanligining o‘zgarishi diapedez yo‘li bilan oqishiga sababchi bo‘ladi. Petexiya, ekximozlarning asosini (gemorrogik diatez) diapedez qon oqishi hosil qiladi.

**Ishemiya**: -organni qon bilan ta’minlovchi arteriyada qon oqimiga qarshilikning oshishi natijasida organga qon kelishining kamayishi va kollateral qon kelishining etishmovchiligi yoki yo‘qligidir.

**Infarkt**—organning qon bilan ta’minlanishining buzilishi natijasida bir qismining nekrozga uchrashi. YUrak, buyrak, taloq, o‘pka infarktlari uchraydi.

**Tromboz** –bu qon tomir kanalida (teshigida) qon ivib qolishi natijasida tromb hosil bo‘lishidir. Tromb butunlay yoki qisman tomir kanalini berkitib, qon aylanishining og‘ir buzilishlariga olib keladi.

**Emboliya** –bu qon tomirlarda yot moddalarning sirkulyasiyasi bo‘lib, bu moddalar qon bilan aralashmaydi hamda qon tomirlarning teshigini to‘sib qoladi. Embol bo‘lib trombning uzilgan qismi, gaz yoki havo pufagi, yog‘ tomchisi, to‘qima (shish)ning bo‘lakchasi bo‘lishi mumkin.

**YAllig‘lanish**-organizm to‘qimalarining patogen ta’sirlovchilar bilan jarohatlanishiga javoban joyli reaksiyasidir. YAllig‘lanishni chaqiruvchi tashqi omillarga mikroorganizmlar, (toksik) zaharli va ximik moddalar, mexanik va termik ta’sirlovchilar, dori moddalari, va boshqalar kiradi. Ichki yoki autogen omillarga azot almashinuvi mahsulotlari, shishlarning bo‘linishi (tarqalishi) mahsulotlari, mediatorlar va immun komplekslari kiradi.

**YAllig'lanish**-ko‘p bosqichli jarayon bo‘lib, uning rivojlanishida patogen omillardan tashqari mediatorlar ham katta ta’sir qiladi.

1) bosqich. To‘qima va hujayralarning jarohatlanishi yoki alteratsiya; 2) bosqich-mediatorlarning chiqishi va mirkotsilkulyator sistemasining reaksiyasi-qonning reologik xususiyatlarining o‘zgarishi bilan; 3) bosqich-ekssudatsiya -qontomir o‘tkazuvchanligining oshishi; proliferatsiya.

**Trofika**-almashinuv jarayonlarining yig‘indisi bo‘lib, hujayra oziqlanishing asosida yotadi va to‘qima va organlar strukturasini va funksiyasini saqlanishini ta’minlaydi va nerv sistemasi yordamida boshqariladi.

**Regeneratsiya**—patalogik jarayon natijasida yo‘qotilgan tuzilmalarning yangilanishidir. Regeneratsyaning 2 xil turi bo‘ladi: 1) fiziologik-organizmning normal hayot faoliyati davomida o‘lgan hujayra va tuzilmalarning tiklanishi; 2) reparativ-jarohatdan keyingi tuzilmalarning tiklanishi. To‘qimalarning regeneratsiya muddati har-xil, u to‘qimaning qon bilan ta’minlanishiga insonning yoshi va faolligiga bog‘liq. Masalan muskul to‘qimasi 7 kundan 12 kungacha tiklanadi, suyak to‘qimasi 2-3 haftadan 4-6 oygacha. Regeneratsiya –biologik jarayon bo‘lib, uni tezlatish mumkin emas. Faqat regeneratsyaning kechishini yaxshilash maqsadida massajdan, oksigenoterapiya, fizio va gidroterapiyadan va davolash jismoniy mashqlaridan foydalanish mumkin.

**SHish** biron-bir kasallika uchragan organning hujayralari kasallik natijasida o‘zgarishi natijasida atipik organoid hosilaning paydo bo‘lishi (o‘z elementlarining proliferatsiyasi yo‘li bilan bu hosilalar kattalashadi). SHish hujayrasi normal hujayradan ferment sistemasini faolligi va xarakteri bilan farq qiladi. SHish hujayralari chegarasiz o‘sishi va hujayra elementlari differensiatsiyasi yo‘qligi bilan xarakterlanadi. Barcha shishlar yaxshi sifatli (dobrokachestvenie) va yomon sifatli (yovuz zlokachestvennie) ga bo‘linadi. YAxshi sifatli shish faqat to‘qimaning illatli rivojlanishi hisobiga paydo bo‘ladi. Bunga bachardon miomasi, ko‘krak bezining fibroadenomasi, tug‘ma angiomalar, nevrinoma, prostata bezining adenomasi misol bo‘ladi.

Yomon sifatli shishlar-hujayralarning maxsus o‘zgarishlari ya’ni milignizatsiyasi natijasida hosil bo‘ladi. YOvuz sifatli shishlarga metastaz berish, ya’ni shish hujayralari birlamchi shishdan boshqa organ va to‘qimalarga ko‘chirilishi va shish tugunlarining hosil qilinishi xarakterlidir. Rak limfa yo‘li orqali metastaz beradi va regional limfa tugunlariga tarqaladi. Sarkomalar uchun metastaz berishning gemotagen yo‘li xarakterlidir. SHishning etiologiyasi haqida bir necha nazariyalar mavjud. Masalan shishlar paydo bo‘lishining radiatsiya bilan, ximik kanserogenlar bilan, viruslar bilan gormonal statusning buzilishi bilan va nasl omillari bilan bog‘likligi isbotlangan.

**Allergiya**—atrof muhitdagi ba’zi omillarning (masalan ximik moddalar, mikrob va uning toksinlari, ovqat mahsulotlari) allergen deb nomlanuvchi omillarning ta’siriga organizmning yuqori sezuvchanligi. Allergenlar bo‘lib turli birikmalar, oddiy ximik birikmalardan tortib (brom, iod) to murakkab (oqsil, polisaxarid) va ularning qo‘shilmalari bo‘lishi mumkin. Allergenlar ekzogen (tashqaridan organizmga tushgan), endogen-organizmda hosil bo‘ladigan (autoallergeni) ekzogen allergen noinfektion (turmushdagi chang, xayvonlar yungi, dori preparatlari, ximik moddalar, hayvon va o‘simlik ovqat mahsulotlari, o‘simliklar changi va boshqalar) va infektion (bakteriyalar, viruslar, va ularning hayot faoliyatidan hosil bo‘lgan mahsulotlari) turlarga bo‘linadi. Ekzogen allergenlar quyidagi gruppalarga bo‘linadi.

**Biologik allergenlar**-mikroblar, viruslar, gelmintlar, plazma va vaksina preparatlari.

**Turmush allergenlari:** uy changi, tarakan va boshqa uy hashoratlari, uy devorlaridagi namlik, islar, gilam changi, hayvonlar yungi, soch va boshqalar: kir yuvish sodalari.

**Ovqat allergenlari:** sut, tuxum, go‘sht, shokolad, pomidor, qulupnay, sitrus mevalar va boshqalar. Ovqat allergiyasining belgilari: qayt qilish, ich ketishi, isitma va toshma toshishi.

**Sanoat allergenlari**-kasb allergik kontakt dermatitlari sartaroshlarda va kosmetologlarda allergen bo‘lib soch bo‘yoqlari, qosh va kiprik, bo‘yoqlari; parfyumeriya moddalari bo‘lishi mumkin. Fizik omillar allergenlarning alohida gruppasini hosil qilib: issiq, sovuq, mexanik qo‘zg‘atuvchilar bo‘ladi. Allergiyaning rivojlanishiga nerv va endokrin sistemalarning buzilishi, bosh miya jarohati, manfiy emotsiyalar, buyrak usti bezining funksiyasining buzilishi sabab bo‘ladi. Allergik kasalliklarning oldini olish allergenlar bilan qayta kontaktning oldini olish, (sensibilizatsiya bo‘lmasligi uchun) va organizmni himoya kuchini oshirish. Sensibilizatsiya o‘chog‘i bo‘lib xizmat qiluvchi Surunkali infeksiya o‘chog‘larini tuzatish (tishlar, gaymorit, angina, xoletsistit va boshqa yallig‘lanish kasalliklari).

**Dori allergenlari.** Sportchilar dori qabul qilganida ko‘pincha toshma bilan reaksiya qiladilar. Toshma ko‘rinishlaridan biri Kvinke shishidir. Kvinke shishi teri, shilliq qavat va teri osti yog‘ qavatining (lablar, yonoqlar, qovoqlar) chegaralangan shishidir. U qo‘qqisdan birdaniga rivojlanadi. SHishning tomoqda joylashishi asfiksiyaga sabab bo‘lishi mumkin. SHishning ko‘z sohasida paydo bo‘lishi ko‘z olmasining medial yo‘nalishda siljishi, ko‘rish o‘tkirligi pasayishi mumkin.

Allergik rinit (tumov)—burunning bitib qolishi va qo‘pgina suv-shilliq chiqishi, aksa urish bilan xarakterlanadi. Allergik reaksiya sportchida rivojlanganda sportchiga ko‘pgina suyuliq beriladi, ba’zida klizma va ich suradigan dorilar buyuriladi. **Antigistamin vositalar:** tavegil, suprastin, dimedrol, pipolfen.

**Immunitet**—bu organizmning patogen mikroorganizmlar va ularning toqsinlariga chidamliligi, berilmaslik xususiyatidir. Immunitet—biologik himoya (reaksiyasi bo‘lib)

mexanizmi bo‘lib, organizmga normal ichki muhitni saqlash imkoniyatini beradi, organizmni infekzion agent yoki antitana xususiyatiga ega bo‘lgan har qanday moddalardan saqlaydi.

Immun reaksiya jarayonida fagotsit hujayralardan tashqari ximik birikmalar ya’ni antitanalar ham ishtirok etadi. Antitanalar bu eriydigan oqsil moddalardir-immunoglobulinlardir (IgA, IgM, IgG, IgE), organizmda yot oqsillar paydo bo‘lishiga javoban ishlab chiqiladi. Qon plazmasida antitanalar yot oqsillarni yopishtirib oladi yoki ularni parchalaydi. Mikroblar zaharlarini zararszlantiruvchi antitanalar –antitoksinlar deb ataladi. Hamma antitanalar faqat bitta mikrob va uning zaxariga nisbatan faoldir, ya’ni har bir mikrob va uning toksiniga nisbatan mahsus antitanalar ishlab chiqariladi. Immunitet tug‘ma va orttirilgan bo‘lishi mumkin. Tug‘ma immunitet onadan bolaga sut orqali o‘tadi. Bu passiv tug‘ma immunitet deyiladi.

**Termoregulyasiya**–tana haroratining bir xil diapozanda ushlab turilishi. Ichki issiqlik hosil qilish darajasi, atrof muhit haroratining o‘zgarganda-avtonom termoregulyasiyaning vositalari yordamida amalga oshiriladi.

**Avtonom termoregulyasiya**–ichki va tashqi muhit harorati ko‘tarilishiga yoki tushishiga javob reaksiyasi bo‘lib issiqlik hosil bo‘lishi va issiqlik uzatilishi jarayonlarining boshqarilishidan hosil bo‘ladi. (periferik vazomator tonusning o‘zgarishi, ter ajralishi, termik taxipnoe, sovuqdan qaltirash)

**Tananing issiqlik balansi**–organizmning muhit bilan issiqlik almashinuvining turg‘un holati bo‘lib bunda issiqlik saqlanishi o‘zgarmaydi.

**Issiq urishi**-tananing isib ketishi natijasida yuzaga keladigan kasallik holati. Bunda bosh og‘rig‘i, ko‘ngil aynishi, qayt qilish va hushdan ketish holatlari kuzatiladi. Issiq urishining asosiy sababi havoning yuqori haroratini uzoq davom etuvchi ta’siri ostida, ayniqsa havoning namligi yuqori bo‘lib, ter ajralishi bilan issiqlik ham ajralganida, termoregulyasiya buziladi va issiq urishi yuzaga keladi. Issiq urganda tana harorati 40-41 S gacha etishi mumkin.

Fiziologiyada issiqlik almashinushi-bu issiqlik energiyasining organizm va atrof muhit orasidagi almashinuvindir. Issiqlik almashinushi issiqlik o‘tkazish, konveksiya, nurlanish va bug‘lanish yo‘llari bilan amalga oshiriladi. Fiziologiyada issiqlik berilishi (uzatilishi)-bu issiqliknинг atrof muhitga konveksiya, nurlanish, bug‘lanish yo‘llari bilan tarqatilishi demakdir. Fiziologiyada issiqlik ishlab chiqarilishi-almashinuv jarayonlari hisobiga organizmida issiqliknинг hosil qilinishi. Termoregulyasiyaning buzilishi issiq va nam iqlimlarda musobaqalarga tayyorgarlik vaqtida va boshqa ko‘p kasalliklarda uchraydi. Halqaro musobaqalar paytida har-xil iqlimi va vaqt bilan farq qiluvchi mamlakatlarda sportchi organizmiga yangi sharoit oshirilgan talablar qo‘yadi. Bu talablarga rioya qilinmasa, sportchining sog‘ligiga zarar etishi mumkin. Bunday holat **desinxronoz** deb ataladi.

**Desinxronoz**-sportchining kunlik ritmining buzilishi natijasida uning organizmidagi o‘zgarishlardir. Desinxronozning asosiy sabablari: vaqt va organizm sirkadian ritmlarining (sutkalik) kelishmovchiligi, vaqt mintaqalari almashinuvi, joyli uyqu va tetiklik vaqtining almashinuvi bilan sportchi Vatanidagi uyqu va tetiklik vaqtidagi kelishmovchilik (farq), har-xil fizik, psixik va psixoemotsional ta’sirlar, jismoniy yuklamalarning oshishi. Desinxronozning belgilari uyquning buzilishi, ishtahaning pasayishi, kayfiyatning pasayishi, aqliy va jismoniy mehnat qibiliyatining pasayishi va boshqalar. Ko‘pchilik odamlarda kun davomida ish qobiliyatining to‘lqinsimon o‘zgarishi va 2 marta “cho‘qqiga” chiqishi kuzatiladi. Birinchi cho‘qqi 8.00 dan 13.00 gacha, 2 chisi 16 dan 19 gacha. Boshqa vaqtarda esa organizmning funksional darajasi pasaygan bo‘ladi. Bundan sportchilarning o‘quv tayyorgarlik va dam olish vaqlarini rejalashtirishda foydalaniladi.

### **Jismoniy tarbiya va sport mashg‘ulotlari yordamida organizmni jismoniy rivojlanishini amalga oshirish**

Insonning jismoniy rivojlanishi deganda organizmning jismoniy qobiliyatini aniqlovchi funksional-morfologik xususiyatlarining majmuasi (kompleks) tushuniladi. Bu majmua sog‘lik, tana og‘irligi, kuch, muskul chidamliligi, harakatlar koordinatsiyasi (muvozanatni) (uyg‘unligi) kabi omillar kiradi. Insonning jismoniy rivojlanishiga irliyat, atrof muhit, sotsiol-ekonomik omillar, mehnat va turmush sharoitlari, ovqatlanish, jismoniy faollik, sport bilan shug‘ullanishlar ta’sir qiladi.

Sportchining ish qobiliyatini aniqlash 4 ta yo‘nalish bo‘yicha o‘tadi:

- 1) Tibbiy ko‘rik.
- 2) Organizmning har-xil sistemalarining jismoniy yuklamaga fiziologik reaksiyasini aniqlash.
- 3) Tana tuzilishini va uning qismlarini jismoniy ish qobiliyatiga solishtirgan holda aniqlash.
- 4) Bajarilishi organizmning har-xil sistemalariga bog‘liq bo‘lgan mashqlar majmuasi ichiga kiruvchi jismoniy yuklamalar va harakatlarni bajarish qobiliyatini aniqlash.

Insonning jismoniy rivojlanishini tekshirishning asosiy usuli tashqi ko‘rik (somatoskopiya) va o‘lchov (somatometriya) dir. Tashqi ko‘rik teri qatlamiga baho berishdan boshlanadi; keyin ko‘krak qafasining shkalasi, qorin, oyoq, muskulning rivojlanish darajasi, yog‘ qatlami, tayanch harakat apparatining holati va boshqa ko‘rsatkichlar baholanadi. Teri silliq, toza, nam, quruq, tarang yoki bo‘sh, ugrilari bor, oqish, pushti, qizargan va boshqalar deb ta’riflanadi.

Tayanch harakat apparatining holati (TXA) umumiy ta’surotlarga asoslanib baholanadi. Elka kengligi, qomat va massivlik umurtqa pog‘onasining holati. Umurtqa pog‘onasi asosiy

tayanch vazifasini bajaradi. Uni frontal va sagittal tekisliklarda ko‘rikdan o‘tkaziladi. Umurtqa pog‘onalarining o‘tkir uchlari orqali o‘tgan chiziq shakli aniqlanadi, kurak suyaklarining simmetrikligi va elkaning balandligi (o‘rni), ikkala qo‘l yonga tushirilganda bel chizig‘i bilan hosil qilingan uchburchak holati aniqlanadi. Normal umurtqa pog‘onasi o‘zining fiziologik qayrilishlariga ega. Patalogik holatlarda umurtqa pog‘onasi oldi va orqaga (kifoz, lardoz) yoki yonga (skolioz) qiyshayishi mumkin. (skolioz). YOn tomonga qiyshayishlarni aniqlash uchun skoliozometr. Tekis (yapaloq) orqa umurtqa pog‘onasining barcha fiziologik qayrilishlarining tekislanib ketishi bilan xarakterlanadi. Dumaloq orqa ko‘krak kifozidir. Bel lordozi kattalashganda tekis-botiq orqa shakllanadi.

Bel lardozi kattalashganda va ko‘krak kifoz kattalashganda dumaloq botiq (egarsimon) orqa shakllanadi. Qomat-erkin turgan odamning odatiy turish holati. Qomat umurtqa pog‘onasining shakli, uni ushlovchi muskulning tonusi va rivojlanishining bir xildaligiga bog‘liq. Quyidagi qomat turlari farqlanadi: to‘g‘ri, kifozik, lordozik va to‘g‘rilangan. Qomat shaklini aniqlash uchun ko‘z bilan kuraklar joylashishi, elka balandligi (o‘rni) va boshning holati kuzatiladi. Undan tashqari jtxozlar bilan tekshiruv uslublari ham qo‘llaniladi. (Bo‘yni va bel qismi qayrilishlarining chuqurligi va umurtqa pog‘onasining uzunligini aniqlanadi).

Normal qomat 5 ta belgi bilan harakterlanadi.

1-ensa suyagining (tepaligi) do‘mboqchasidan tushirilgan va umurtqa pog‘onasining o‘tkir o‘sintalari va dumbalararo burmadan o‘tuvchi ip hosil qilgan chiziq bo‘ylab umurtqa pog‘onasining o‘tkir o‘sintalarining joylashishi yoki ustma-ust tushishi,

2-elkaning bir xil balandlikda, bir-biriga teng joylashishi.

3-2 la kurakning bir xilda joylashishi.

4-tana bilan erkin tushirilgan qo‘llar orasida hosil bo‘lgan uchburchaklar o‘ng va chapining tengligi.

5-umurtqa pog‘onasining saggital tekislikdagi fiziologik qayrilishlarining to‘g‘riligi yoki normadaligi (bel sohasida 5 sm va 2 sm gacha bo‘yin sohasida).

Skolioz, kifoz kabi kasallikkarga to‘g‘ri kelmaydigan sport turi bilan shug‘ullanish, erta maxsus sport turi bilan shug‘ullanishni boshlanishi (gimnastika, shtanga) umurtqa pog‘onasining funksiyasining buzilishiga va muskullar disbalansiga olib keladi va insonning ish faoliyatining buzilishiga olib keladi. Oyoqlarning shakli aniqlanayotganda tekshiriluvchi tovonlarini birlashtiradi va tik holatda turadi. Normada oyoqlar tizza bo‘g‘inida bir-biriga tegib turadi, O-shaklida oyoqlarda tizza bo‘g‘imlari bir-biriga tegmaydi; X-shaklidagi oyoqlarda bir tizza ikkinchi tizzaning orqasiga o‘tib turadi, ya’ni ustma-ust tushadi.

Oyoq kaft suyagi tayanch va harakat organidir. Kaft 3 xil bo‘ladi; 1) normal, 2) tekislangan, 3) yassi kaftlar farqlanadi. Kaft shaklini aniqlashda tovon bilan kaftning oldingi

qismini birlashtiruvchi bo'yin kengligiga e'tibor beriladi. Bundan tashqari plantografiya, ya'ni kaftning izini olish yo'li bilan ham kaft shakli aniqlanadi.

Ko'krak qafasining ko'rige uning shaklini, nafas olishda simmetrikligi va nafas olish tipini aniqlash uchun zarur bo'ladi. Ko'krak qafasi 3 turda bo'ladi; Normostenik, astenik, giperstenik, ko'pincha ko'krak qafasi aralash shaklda bo'ladi.

Ko'krak qafasining normostenik shakli uning old-orqa va ko'ndalang o'lchovlarining nisbati bir-biriga proporsionalligi, o'mrov osti va o'mrov usti chuqurchalari aniq bilinmasligi bilan xarakterlanadi. Kurak suyaklari ko'krak qafasiga mahkam yopishib turadi. Qovurg'alararo bo'shliqlar kam (rivojlangan) ifodalangan.

Ko'krak qafasining astenik shaklida—old-orqa o'lchov ko'ndalang o'lchovga nisbatan kichraygan, o'mrov usti va o'mrov osti chuqurchalari aniq ko'rinish turadi, kurak suyaklari ko'krak qafasidan ajralib turadi. 10- qovurg'aning (qirg'og'i) uchi erkin va paypaslanganda oson aniqlanadi.

Ko'krak qafasining giperstenik formasida old-orqa diametr normostenikdan katta bo'ladi va shuning uchun ko'ndalang o'lchov aylanaga yaqin bo'ladi. Qovurg'alararo bo'shliq tor, o'mrov usti va o'mrov osti chuqurchalari sust ifodalangan.

Insonning konstitutsional tipi va kasallikka chalinishi orasida bog'lanish bor. Masalan asteniklarda tuberkulyoz ko'p uchraydi, oshqozon-ichak kasalliklari ham ko'p uchraydi, gipersteniklarda—modda almashinuvi kasalliklari va jigar kasalliklari va xafaqon kasalliklari uchraydi. Ko'krak qafasining patalogik shakllari ko'krak qafasi organlari kasalliklarida va suyak deformaksiyalarida rifojlanadi. Umurtqa pog'onasining har-xil qiyshayishlarida ham ko'krak qafasining shakli o'zgaradi.

Masalan: umurtqa pog'onasining kifoz va skolioz qiyshayishi birga uchraganda kifoskolioz rivojlanadi va ko'krak qafasi kifoskaliotik deyiladi. Ko'krak qafasi tekshirilganda nafas olishning tipi, tezligi, chuqurligi va ritmga e'tibor beriladi.

Quyidagi nafas olish tiplari farqlanadi; ko'krak, qorin va aralash tiplar. Agar nafas olish harakatlari asosan qovurg'alararo muskullarning qisqarishi hisobiga amalga oshirilsa ko'krak tipi; qorin muskullarining qisqarishi hisobiga amalga oshirilganda qorin tipi, ko'krak qafasining pastki qismi va qorinning yuqori qismi ishtirok etganda aralash tip deyiladi. Mushak rivojlanganligi mushak to'qimasi soni, tarangligi va relefliligi bilan harakterlanadi. Maktab o'quvchilarining jismoniy rivojlanganligini aniqlash, baholash uchun ularning balog'atga etganlik darajasi aniqlanadi. Uni aniqlashda ikkilamchi jinsiy belgilarining rivojlanishiga baho beriladi.

**Antropometriya**—tananing uzunligi, diametr va aylanasining aniqlashdir. Asosiy antropometriya ko'rsatkichlar va yordamchi qo'shimcha antropometrik ko'rsatkichlar aniqlanadi.

Asosiy antropometrik ko'rsatkichlariga: bo'y, og'irlik, ko'krak aylanasi, (nafas olganda, pauzada va nafas chiqarganda) kaftlarning kuchi va orqa muskullarining kuchini aniqlash kiradi. Qo'shimcha antropometrik ko'rsatkichlariga: o'tirgandagi bo'y, bo'yin aylanasi, qorin aylanasi, bel aylanasi, son va boldir aylanalari, elka o'lchovi, ko'krak qafasining sagittal va frontal diametrlari, qo'l uzunligini aniqlash kiradi. Tik turganda va o'tirgandagi bo'y-bo'y o'lchagich yordamida aniqlanadi. Antropometr yordamida tananing alohida qismlarining uzunligi o'lchanadi; qo'l va oyoq uzunligi va tana uzunligi.

**Tananing og'irligi**-meditsina tarozilarida o'lchanadi. Tana og'irligi suyak, muskul apparati, teri osti yog' qavati va ichki organlarning rivojlanish darajasini ifodalaydi. Bosh aylanasi, ko'krak, elka, son, boldir aylanalari santimetrl lenta bilan o'lchanadi. Qo'lning muskul kuchi muskulning rivojlanishi darajasini xarakterlaydi, u dinomometr yordamida o'lchanadi. (kg da o'lchanadi) Diametrlarni o'lhash sirkullar yordamida amalga oshiriladi.

Jismoniy tarbiya va sport bilan shug'ullanuvchi shaxslarning jismoniy rivojlanishining tekshiruvi quyidagi vazifalarni belgilaydi. Jismoniy tarbiya va sport bilan shug'ullanishning organizmga ta'sirini baholash; bolalar va o'smirlarni ayni bir sport turi bilan shug'ullanish uchun tanlash va saralash; bo'y, tana vazni, qo'l va oyoqlarning nisbiy uzunligi, tana va oyoqlarning nisbati va boshqalar. Fiziologik ko'rsatkich yurak-qon sistemasi tinch holatda va yuklamalardan keyin, nafaslar soni (tezligi) o'pkaning tiriklik sig'imi Antropometrik ma'lumotlar u yoki bu sport turi bilan shug'ullanishni ta'qqlishi mumkin emas, chunki ba'zida antropometrik ko'rsatkichlari talabga javob bermaydigan sportchilar ba'zi bir sport turi bo'yicha yuqori natijalarga erishgan.

#### **Jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlarining organizmga sog'lomlashuvchi ta'siri**

Tinch holatda muskullarda moddalar almashinushi yuqori bo'lmaydi, lekin maksimal jismoniy yuklamalarda metabolizm 50 barobar oshishi mumkin. SHu bilan birga modda almashinushi mahsulotlarini tashuvchi sistemaga, ya'ni to'qima suyuqligi va qonga katta yuklama tushadi. Ximik va fizik muvozanatni saqlash uchun ular (to'qima suyuqligi va qon) hujayralarga kerakli oziq moddalar va kislородни etarli darajada etkazib berishi kerak va hujayralardan issiqlik almashinuvning qoldiq yoki mahsulotlarini (suv, SO<sub>2</sub> va boshqalar) chiqarib tashlashlari zarur. Intensiv yuklamalarda charchamaslik muskullarni qon va kislород bilan ta'minlovchi organlarning-qon aylanish va nafas olish sistemalari-faoliyatiga bog'liq bo'ladi.

Muskul hujayralarining o'zida energiya almashinushi ATF adenozin trifosfor kislotasi va kreatin fosfat hisobiga amalga (KF) oshiriladi. Muskullar asosiy harakat mexanizmi bo'lib hisoblanadi. Skelet muskullari suyaklarga yoki boshqa tuzilmalarga bevosita yoki fibroz paylar vositasida birikadi. Muskullarning qisqarishi Vegetativ nerv sistemasi bilan boshqariladigan (VNS somatik nerv) somatik nervlar amalga oshiriladi. Statik va dinamik muskul ishi farqlanadi.

Statik ishda muskul qisqarishi tana qismlari harakati bilan bog'liq emas. Masalan, insonning o'tirishi yoki turishini ta'minlovchi muskullar statik ish bajaradi. Inson tanasining ba'zi qismlari siljiganda dinamik ish bajaradi.

**Insonning jismoniy faolligi**-statik va dinamik ishdan iborat. Statik muskul ishida yuklamalarga chidash u yoki bu mushak gruppalarining funksional holatiga bog'liq, dinamik ishda esa bundan tashqari energiya etkazib beruvchi sistemalarning (yurak-qon tomir va nafas olish sistemalari) faolligiga bog'liq. Ma'lum bir mushak gruppalari rivojlantirilishi va ushlab turishi mumkin bo'lgan maksimal kuchlanish va maksimal kuchlanish vaqt-mushak gruppalarining lokal funksional qudratiga bog'liq bo'ladi. Dinamik ish sharoitida chidamlilik va maksimal qudrat energiya ishlab chiqaruvchi mexanizmlarning effektivligi va ularning organizmning boshqa funksional tizimlari bilan kelishuvchanligi bilan aniqlanadi.

Qon aylanishi bu zarur fiziologik jarayon bo'lib, gomeostazni saqlaydi, organizmning barcha hujayra va organlariga zarur bo'lgan oziq moddalar va kislородни etkazib beradi, SO<sub>2</sub> va almashinuvning boshqa mahsulotlarini chiqarib tashlaydi, immunologik himoya va fiziologik funksiyalarning gumoral boshqaruvini ta'minlaydi. YUrak qisqarishlarining tezligi (YUQS) ko'p omillarga bog'liq. Masalan, yosh, jins, atrof muhit sharoitlari, funksional holat, tananing holati (o'tirgan, tik turgan). YOtgan holatda yurakning qisqarish tezligi turgan holatdagidan ozroq bo'ladi, yosh o'tgan sari kamayadi, kun davomida o'zgarib turadi (bioritm). Uyqu vaqtida 3-7 taga kamayadi.

Ovqatlangandan so'ng ko'payadi, chunki qorin bo'shlig'i organlariga qon ko'p keladi. Atrof muhit harorati ko'tarilganda YUQS xam ko'tariladi. Sportchilarda YUQS tinch turganda boshqa odamlarga nisbatan ozroq bo'ladi va bir minutda 50-55 marta uradi. Jismoniy yuklamalar yurakning qisqarish sonining oshishiga olib keladi. CHunki yurakning minutli hajmining o'sishini ta'minlash uchun YUQS ko'payishi zarur bo'ladi. Ishning intensivligi va YUQS orasida chiziqli bog'lanish borligi aniqlangan. 20 yoshda maksimal YUQS –200 ur /minut, 64 yosh va undan kegin 1 minutda 160 marta, chunki yosh o'tishi bilan biologik funksiyalarning pasayishi sodir bo'ladi. YUQS muskul ishining kattaligiga proporsional ravishda oshadi. Odatda yuqlama 1000 kgm- minut bo'lganda YUQS 160-170 taga etadi. YUrak ishi juda katta YUQS ga etganda effektivligi kamayadi, chunki qorinchalarning qon bilan to'lish vaqtি ancha qisqaradi va yurak urish hajmi kamayadi.

Tinch holatda yuqlamaga o'tilganda yurak urish hajmi (YUUH) tez ko'tariladi va intensiv ritmik ish davomida stabil darajaga etadi. Engil yuqlama sharoitlardan qonning rezerv hajmi ishlatilishi hisobiga YUUH oshadi. YUqlama miqdorini oshirish davomida YUUH oshishi sekinlashadi, chunki qonning rezerv hajmini ishlatish imkoniyati kamayadi. YUqlama miqdori yana xam oshirilganda qonning rezerv hajmi butunlay ishlatilib bo'lganda, YUUH oshishi

to‘xtaydi. Agar yuklamalar kislorodning maksimal sarflanishidan o‘tib ketsa (aerob imkoniyatda) YUUH hajmi kamayadi, chunki yurakning qisqarish soni oshganida yurak kameralarining qon bilan to‘lish effektivligi kamayadi.

YUMH (yurakning minutli hajmi) –YUUH va YUQS bilan aniqlanadi va inson tanasining holati jinsi, yoshi tayyorgarligi tashqi muhit sharoitiga bog‘liq bo‘ladi. O‘tirgan va turgan holatda o‘rtacha intensivlikdagi jismoniy yuklama berilganda yurakning minutli hajmi xuddi shu yuklamani yotgan holatda bajarilganiga nisbatan 2 1 minutga kamroq bo‘ladi. Bu quyidagicha tushuntiriladi: o‘tirgan va turgan holatda og‘irlilik kuchi ta’sirida qon oyoqlar tomirida to‘planadi. Intensiv yuklama paytida YUMH tinch holatdagiga nisbatan 6 marta oshishi mumkin. Natijada to‘qimalarga O<sub>2</sub> etkazilishi 18 martaga oshib, tayyorlangan shaxslarda intensiv yuklama berilganda asosiy almashinuv miqdoriga nisbatan metabolizmning 18-20 marta oshishiga sabab bo‘ladi.

Og‘ir jismoniy yuklamalar berilganida YUMH tananing holatiga qarab o‘zgarishi yo‘qoladi, ya’ni o‘zgarmay qoladi. Qonning minutli hajmi oshishida (jismoniy yuklamalar berilganda) asosiy rolni mushak nasosi mexanizmi o‘ynaydi. Muskullarning qisqarishi ulardagi venalarning qisilishiga olib keladi va natijada oyoq muskullaridan venoz qon oqimini tezlashishiga olib keladi. Postkapillyar tomirlar (jigar, taloq) umumiyl rezerv sistemaning qismi kabi harakat qilib, ularning devorlari qisqorganida venoz qon oqimi tezlashadi. Bular o‘ng qorinchaga qon kelishi kuchaytirib, yurakning tez to‘lishiga sabab bo‘ladi.

**Nafas olish**–uchta bir-biridan uzilmas zvenodan iborat; a) tashqi nafas-ya’ni tashqi muhit bilan o‘pka kapillyarlari qoni orasidagi gaz almashinuvi; b) qon aylanish sistemasi tomonidan gazning tashilishi; v) ichki (to‘qima) nafas-qon bilan hujayralar orasidagi gaz almashinuvi, ya’ni bu jarayon davomida hujayralar kislorod yutib, korbonat angidridni chiqaradi. Odamning ish qobiliyati havodan o‘pka kapillyarlariga olingan O<sub>2</sub> miqdoriga va uning hujayra va to‘qimalarga etkazilishiga bog‘liq. YUqorida berilgan nafas olishning uch sistemasi bir-biriga bog‘liq va o‘zaro kompensatsiya imkoniyatiga ega. Masalan, yurak etish mavchiligidagi-hansirash yuzaga keladi, atmosfera havosida O<sub>2</sub> etishmasligida eritrotsitlar ya’ni, kislorod tashuvchilarining miqdori oshadi, o‘pka kasalliklarida taxikardiya yuzaga keladi.

Tashqi nafas olish alveolo havosi va o‘pka kapillyarlaridagi qon orasidagi gaz almashinuvini ta’minlaydi, ya’ni vena qonini kislorod bilan to‘yinoshini va undan korbonat angidridning oshiqchasini chiqarib tashlashni ta’minlaydi. Nafas fiziologiyasida tashqi nafas funksiyasini 3 ta asosiy jarayonga bo‘linadi: -ventilyasiya, diffuziya va perfuziya. Ventilyasiya deganda –atmosfera havosi va alveola havosi orasidagi gaz almashinuvi tushuniladi. Nafas olinganida hamma olingan havo alveolalargacha etib bormaydi. Agar olingan havo hajmi 500ml bo‘lsa, uning 150 ml i “o‘lik” zonada qoladi va 1 minutda o‘pkaning nafas zonasidan o‘rtacha

(500 ml –150 ml) x 15 (nafas tezligi soni)q 5250 ml atmosfera havosi o‘tadi. Bu kattalik alveola ventilyasiyasi deb ataladi. “O‘lik zona” chuqur nafas olinganda ko‘payadi.

**Diffuziya**-kislороднинг альвеола капилляр membranадан о‘пка капиллярларидаги гемоглабинга о‘тib, улар билан химик реаксиyasiga kirishish jarayonidir.

**Perfuziya**-bu o'pkaning kichik qon aylanish doirasi tomirlari orqali qon bilan (tozalanishidir) ta'minlanishidir.

O'pka ishining effektivligi haqida ventilyasiya va perfuziyaning nisbati orqali aniqlanadi. Bu nisbat ventilyasiyada ishtirok etayotgan alveolalar soni va ularning yaxshi perfuziyalangan kapillyarlar bilan yopishib turishi orqali aniqlanadi. Jismoniy yuklamalar davrida kislorodning sarfi ancha oshadi. Bu esa yurak qon tomir va nafas olish tizimiga talabni oshiradi va bu tizimlarning jismoniy yuklamalar paytida o'zgarishiga olib keladi. Tashqi nafas olishni tekshirish sportda sportchining funksional holati va uning rezerv imkoniyatlarini aniqlashga yordam beradi. Tekshirish anamnez yig'ish, keyin tashqi ko'ruv, perkussiya va auskultaksiyadan iborat. Ko'rikda nafas olish tipi, xansirash bor yo'qligi va boshqalar aniqlanadi. 3 xil nafas olish tipi aniqlanadi: ko'krak, qorin (diafragma) aralash tiplar:

Nafas olishning ko‘krak tipida nafas olinganda o‘mrov suyaklari ko‘tarilgani sezilib turadi va qovurg‘alar harakati kuzatiladi. Bunday tipda o‘pka hajmi asosan yuqori va pastki qovurg‘alar harakati hisobiga ko‘tariladi. Nafas olishning qorin tipida esa o‘pka hajmi asosan diafragma harakati hisobiga ko‘payadi-nafas olinganda diafragma pastga tushadi va qorin bo‘shlig‘i organlariga salgina jildiradi. SHuning uchun nafas olganda qorin devori ozgina ishib chiqadi. Sportchilarda nafas olishning aralash tipi bo‘ladi.

**Perkussiya** (urib ko‘rish) o‘pka to‘qimasini zichligini (qattiqligini) aniqlashga yordam beradi. Kasalliklar natijasida o‘pkada o‘zgarishlar aniqlanadi. Auskultatsiya (fonendoskop yordamida eshitish) havo yo‘llari holatini aniqlaydi. SHamollashda har-xil hirillashlar va nafas olishning susayishi yoki kuchayishini aniqlashga yordam beradi. Tashqi nafas olishning funksiyasini aniqlash uchun spirometr, spirograf va boshqalar apparatlardan foydalilanadi. O‘pka ventilyasiysi nafas muskullarining funksiyasi bilan bog‘liq.

O'pkaning harakati nafas muskullarining qisqarishi va diafragma va ko'krak qafasining harakatlari bilan qo'shilgan holda. Nafas muskullari bu shunday muskullarki, bu muskullarning qisqarishi ko'krak qafasi hajmini o'zgartiradi. Nafas olish-ko'krak qafasining kengayishidan yuzaga keladi va faol jarayon hisoblanadi. Nafas chiqarish tinch paytida passiv-ya'ni muskullar faolligining sekin pasayishi hisobiga (nafas olgan paytda qisqargan muskullarning) bo'shashishi hisobiga amalga oshiriladi. Kuchaytirilgan nafas chiqarishda bo'lsa boshqa muskullarga ichki qovurg'alararo muskullar va qorin muskullari qatnashadi. O'pka hajmi nafas olinganda doim bir xil bo'lmaydi. Odatdagi nafas (oddiy) olinganda va odatdagи nafas chiqarilgandagi havo hajmi

nafas havosi deyiladi. Qoldiq havo-o'pkada qolgan havo. Nafas tezligi (soni)-1 minutdagি nafaslar soni.

Markaziy nerv sistemasi (MNS)-odamning funksional tizimlaridan eng murakkabrog' idir. Miyada tashqi va ichki muhitda sodir bo'ladigan o'zgarishlarni analiz qiluvchi sezgi markazlari joylashgan. Miya organizmdagi barcha funksiyalarni, shu jumladan muskul qisqarishi va ichki sekretsiya bezlarining sekretor funksiyasini ham boshqaradi. Retseptorlardan signal sensor markazlarga, bu markazlardan mator markazlarga va ulardan effektor organlarga, muskullarga va bezlarga aniq uzatish kerak. Bosh miya po'stlog'ida 50 milliardgacha nerv hujayralari murakkab turga birlashgan. Alovida nerv hujayralari o'simtalari orqali bir-biri bilan birlashib, murakkab funksional tuzilishi hosil qiladilar.

Nerv hujayralari qo'zg'algan va tinch holatda bo'lishi mumkin. Bu 2 ta asosiy jarayon kuch, harakatchanlik va muvozanatlashganlik bilan harakterlanadi. Nerv tuzilishining funksiya qilishida shartli va shartsiz refleksi yotadi. Harakterning o'ziga xos belgilari ichki sekretsiya bezlarining faoliyatiga bog'liq bo'ladi. (Endokrin bezlari)

**Elektromiografiya** (EMG)-skelet muskullarining funksiyasini ularning elektrik faolligini biotoklari, bionotensiollarini registratsiyasi vositasida o'rganish usulidir. Romberg sinamasi-tik turgan holatda muvozanat buzilishini aniqlaydi. Harakatlarimizning normal muvozanatini ushlab turish markaziy nerv sistemasi bir necha bo'limlarining birgalikdagi faoliyati hisobotiga amalga oshiriladi. Bularga miyacha vestibulyar apparat, chuqur muskul sezuvchanligini o'tkazuvchilar, peshona va chakka qismlari po'stlog'i. Harakatlar koordinatsiyasining markaziy organi miyachadir. Tekshiriluvchi hamma holatlarda qo'li oldinga ko'tarilgan, barmoqlar yoyilgan va ko'zi yumilgan bo'ladi. Agar sportchi barcha holatlarda 15 Sekund davomida muvozanatini saqlasa, va bunda tanasi tebranmasa, qo'li va qovoqlari qaltiramasi-“juda yaxshi” baholanadi. Tremorda (qo'li va qovog'i qaltirasa) “qoniqarli” baho qo'yiladi. Agar 15 S davomida muvozanat buzilsa, sinama “qoniqarsiz” deb baholanadi. Bu test akrobatikada, sport gimnastikasida, sakrashda, figurali uchish va boshqa koordinatsiya (muvozat) muhim rol o'ynaydigan sportlarda amaliy ahamiyat kasb etadi.

Muntazam trenirovkalar harakatlar koordinatsiyasining rivojlanishi va mustahkamlanishiga sabab bo'ladi. YArotskiy testi vestibulyar analizatorning sezuvchanlik ostonasini aniqlashga yordam beradi. Test sportchining tik turgan holatida ko'zi yumuq holda bajariladi, bunda sportchi komanda bo'yicha boshni aylantirish (tezda) harakatini bajaradi. Sportchi boshini aylantira boshlaganidan muvozanatini yo'qotgunicha bo'lgan vaqt o'lchanadi. Sog'lom odamlarda muvozanatni saqlab turish vaqt 28 sekund, tayyorgarlik qilgan (trenirovka qilgan) sportchilarda 90 sekundni tashkil qiladi. vestibulyar apparatning sezuvchanlik ostonasi naslga bog'liq bo'ladi, lekin trenirovka ta'siri bilan uni oshirish mumkin.

Maktab o‘quvchilarining organizmi o‘zining anatomo-funksional imkoniyatlari bo‘yicha katta odamlar organizmidan farq qiladi. Bolalar tashqi muhit omillariga (ta’sirlariga) tez beriluvchan va jismoniy yuklamalar ular organizmiga yomon ta’sir qiladi. SHuning uchun to‘g‘ri rejelashtirilgan mashg‘ulotlar, vaqt va murakkabligi bo‘yicha to‘g‘ri dozalangan mashg‘ulotlar o‘quvchining garmonik rivojlanishini ta’minlaydi. Erta yoshda mutaxassislikni berish, natijaga erishish uchun haddan tashqari mashg‘ulotlar bilan shug‘ullanish. Ko‘pincha shikastlanish kasalliklarga sababchi bo‘ladi, hamda o‘sish va rivojlanishni to‘xtadi.

11 yoshgacha bo‘lgan mакtab o‘quvchilarining suyak sistemasi etarli darajada rivojlanmaganligi sababli ularning qomatining buzilish xabari ko‘proq bo‘ladi. Bu yoshda umurtqa pog‘onasining qiyshayishi, yassi oyoqlik, o‘sishdan to‘xtab qolish va boshqa patalogiyalar ko‘p.

Yirik muskullar kichik muskullarga nisbatan tezroq rivojlanmaganligi sababli bolalar mayda va aniq harakatlarni bajarishga qiynaladilar, ularda koordinatsiya etarli rivojlanmagan. Bundan bolalar diqqatining etarli emasligi, ya’ni fikrining o‘zgaruvchanligi va tez charchashi kelib chiqadi. (CHunki qo‘zg‘alish jarayoni, termozlanish jarayoni ustidan ustun turadi). SHuning uchun sport mashg‘ulotlarida yoki jismoniy madaniyat darslarida yuklama va dam olishni to‘g‘ri tashkillashtirish zarur.

Boshlang‘ich sinflarda charchashning oldini olish, ya’ni profilaktika ayniqsa muhimdir. To‘g‘ri tuzilgan kun tartibi bo‘lishi zarur. CHiniqtirish muammolari (dush, har qanday havoda sayr qilish), o‘yinlar, ertalabki gimnastika, mакtabda-dars boshlangunga qadar gimnastika, jismoniy madaniyat darslari, darslar orasida jismoniy madaniyat minutlari tashkil qilish kerak. O‘rta mакtab yoshida (12-16) bolalar deyarli shakllanib bo‘lgan suyak sistemasiga ega bo‘ladi. Lekin umurtqa pog‘onasi va chanoq suyagining rivojlanishi tugallanmagan, shuning uchun katta jismoniy yuklamalar berish mumkin emas. Agar o‘quvchi shtanga, sakrash va sport gimnastikasi bilan shug‘ullansa skolioz, o‘sishdan to‘xtash xavfi saqlanib qoladi. Harakatlar koordinatsiyasi takomillashadi. Bu yoshda (jinsiy etilish) balog‘atga etish munosabati bilan nerv sistemasi qo‘zg‘aluvchanligi bilan harakterlanib, jismoniy yuklamalarga moslashishga va tiklanish jarayonlariga tez ta’sir qiladi.

YUqori mакtab yoshida (17-18 yosh) suyaklarning shakllanishi va muskul tizimining shakllanishi deyarli nihoyasiga etadi. Bo‘yning tez o‘sishi, ayniqsa voleybol, basketbol va yuqoriga sakrash bilan shug‘ullanuvchilarda kuzatiladi, tana og‘irligi oshadi, kuch ko‘payadi. Mayda muskullar intensiv rivojlanadi, harakatlarning aniqligi va koordinatsiya takomillashadi. O‘quvchilarning rivojlanishiga harakat faolligi, ovqatlanish va chiniqtirish muoljalari ta’sir ko‘rsatadi. Maktab shifokori jismoniy tarbiya darsining intensivligini aniqlaydi (puls, nafas olish tezligi va charchashning tashqi belgilariga asoslanib), mashg‘ulotlar orasidagi razminka dam

olishning etarligi, kasal bolalar maxsus guruhlarda shug‘ullanadilar. O‘qituvchi kasalni qachon darsga qo‘yish mumkinligini bilishi kerak.

Jismoniy tarbiya darslaridan ozod qilishning taxminiy muddatlari. Angina 14-28 kun, bronxit 7-21 kun, otit 14-28 kun, pnevmoniya 30-60 kun, plevrit 30-60 kun, gripp 14-28 kun, o‘tkir nevrit, bel dumg‘aza radikuliti 60 va undan ko‘p kun, suyaklar sinishi 30-90 kun bosh miya chayqalishi 60 va undan ko‘p kun, o‘tkir infekzion kasalliklar 30-60 kun. SHifokor va jismoniy tarbiya o‘qituvchisining asosiy vazifasi-mashg‘ulotlar paytida yuzaga keladigan jarohatlarning oldini olish. Jarohatlarning asosiy sabablari quyidagilardir. Noto‘g‘ri yoki yomon razminka, mashg‘ulotlar o‘tkaziladigan joylarning noto‘g‘ri yoritilishi, sovuqligi, kasaldan tuzalgan bolaning erta mashg‘ulot boshlashi va boshqalar.

**O‘quvchilarning harakat faolligi.** Bolalarning harakat faolligi va sog‘ligi o‘rtasida to‘g‘ri bog‘lanish mavjud. Harakat sog‘lik garovi. Bu aksioma. Bolalik va va o‘smirlilik yoshida harakat faolligini shartli ravishda 3 ga bo‘lish mumkin. Jismoniy tarbiya jarayonidagi faollik; o‘qish va mehnat faoliyati davridagi harakat faolligi: bo‘sish vaqtidagi jismoniy faollik. Harakat faolligini nazorat qilish maqsadida xronometraj, shagomer va boshqalar qo‘llaniladi.

Maktabdagi mashg‘ulotlar (4-6 soat) engil faollik (4-7 s), o‘rtacha faollik (2,5-6,5 s) yuqori faollik (0,5 s). Bu ko‘rsatkichga energiya sarfi kattaligining kunlik o‘sishi qo‘shiladi. SHuni ta’kidlash lozimki, harakat kamligi (gipodinamiya) ham va uning ortiqchaligi ham (giperkinezija) o‘quvchilarning sog‘ligiga yomon ta’sir ko‘rsatadi. YOzda o‘quvchilarga harakat faolligi etarli bo‘lishi uchun har-xil harakatli o‘yinlar, suzish, qomat va oyoq kafti normal rivojlanishini ta’minlovchi mashqlar tashkil qiladi.

**Yosh sportchilarning shifokor nazorati.** Jismoniy yuklamalar yosh sportchilar organizmiga har tomonlama tayyorgarliksiz erta yoshda ixtisoslashtirish boshlansa, immunitetning pasayishiga, o‘sish va rivojlanishining kechikishiga tez-tez kasallanish va jarohatlarga sabab bo‘ladi. Qiz bolalar erta ixtisoslashtirish ayniqsa, gimnastika, suvgaga sakrash va akrobatikada jinsiy funksiyaning buzilishiga olib keladi. Ularda menstruatsiya tezroq boshlanib, ba’zida amenoreya va boshqa kasalliklar ham uchraydi. Bolalar va o‘smirlarning jismoniy tarbiyasi quyidagi vazifalarni ko‘zlaydi: sog‘lomlashtirish, tarbiyaviy va jismoniy takomillashtirish.

**O‘quvchilarning ovqatlanishining xususiyatlari:** Bolalar ovqatining kattalar ovqatiga nisbatan oshiqroq kaloriyalı bo‘lishiga sabab, moddalar almashinuvining intensivligi, ko‘proq harakatchanligi, tana og‘irligi va uning yuzasining bir-biriga nisbati bilan bog‘liqdir (bolalarda 1 kg og‘irlikka kattalarga nisbatan kattaroq tashqi yuzi to‘g‘ri keladi. SHuning uchun ular tezroq sovqotib qoladilar va issiqlikni ko‘proq yo‘qotadi). Kuchli issiqlik yo‘qotishlari ovqatning yuqori kaloriyalı bo‘lishini talab qiladi. Tananing nisbiy yuzasini hisobga olgan holda kattalarga

1 sutkada 42 kkal, 16 yoshli bolalarga 50 kkal, 10 yoshlilarga –69 kkal, 5 yoshlilarga 82 kkal. Ovqat bolalarning o'sishi rivojlanishi uchun kerak bo'lganligi sababli, yosh o'sishi bilan oqsil va vitaminlarga bo'lgan talab ham o'sadi. 7 yoshdan 12 yoshgacha 1 sutkada 1 kg vaznga 2,5 –3,0 g oqsil zarur.

12 yoshdan 16 yoshgacha –2 g hayvon oqsilining kunlik ratsiondagi fayzi 60% dan kam bo'lmasligi kerak. Bolalar va o'smirlar uchun zarur bo'lgan kaloriyalik (kkal) va oqsil, yog' va uglevodlar miqdori (gramlarda 1 sutkada) Quyidagi nisbat bolalarning o'sishi va rivojlanishi uchun eng qulay hisoblanadi. 1 g oqsilga 1 g yog' nisbati. Uglevodlar kichik yoshda ko'proq, katta yoshda esa kamroq bo'ladi. Oqsillar esa aksincha yosh o'sishi bilan ko'proq qabul qilinadi. Ovqatda uglevodning ko'p bo'lishi ham zararli immunitet pasayadi, ko'p shamollaydi. Keyinchalik esa dibet bilan og'rishlari ham mumkin. Bolalarda kattalarga nisbatan barcha vitaminlarga talab katta. Vitamin A ga etishmovchiligi o'sishdan to'xtab qolishga, vaznning kamayishiga sabab bo'ladi. D vitamining etishmaganida esa raxit kasalligi kelib chiqadi. (D vitamin kalsiy fasfor almashinuvini boshqaradi).

O'quvchilarni har-xil meteorologik omillarga chidamlilagini oshirish maqsadida (sovuuq, issiq, radiatsiya, atmosfera bosimining o'zgarishlari va boshqalar) Ularni sistemali ravishda chiniqishga o'rgatiladi. CHiniqtiruvchi vositalarga quyosh, havo va suv kiradi. CHiniqtiruvchi suv muolajalari quyidagi tartibda bajariladi. Ishqalash, badanni suv bilan yuvish (suv quyish) vanna qabul qilish, basseynda cho'milish, qor bilan ishqalash va boshqalar. CHiniqishni har qanday yoshda boshlash mumkin, yaxshisi yozda boshlash kerak: yoki kuzda. Muolajalarni faol rejimda olib borilsa, ya'ni ularni o'yinlar va jismoniy mashqlar bilan birgalikda olib borilsa, ularning effektivligi yanada oshadi. O'tkir kasalliklar va surunkali kasalliklarning qo'zg'algan davrida chiniqtiruvchi muolajalar mumkin emas. CHiniqish- bu quyidagi tadbirlar majmuasidir.

1. Uyda va maktabdagagi xonalar haroratini boshqarish. O'zgaruvchan harakat rejimi tavsiya qilinadi. Kichik va o'rta yoshdagi maktab o'quvchilari uchun amplituda (temperaturaning o'zgarish amplitudasi) (B –1-7 gradus) S, katta yoshli o'quvchilar uchun –(8-10) gradus S.

2. Kiyimning issiqlikni saqlash xususiyatidan foydalanish. O'quvchilar – atrof muhit haroratiga mos keluvchi kiyimlar kiyishlari zarur. Organizmning issiqlikni boshqaruvi sistemasi faqat nisbatan kichik chegaralarda issiqlik muvozanatini saqlashni ta'minlaydi xolos. Faol harakatlarda (o'yinlarda) muskullar katta miqdorlarda issiqlik ajratib chiqaradilar va bu issiqlik to'planib organizmning o'ta isib ketishiga sabab bo'ladi. Tinch vaqtda esa organizm sovqotadi va shamollab qolishi mumkin.

3. Ochiq havoda katta tanaffusda harakatli o'yinlar o'ynash.

4. Ochiq havoda faol dam olish zo'r sog'lomlashtiruvchi omil.

Agar kiyim havo sharoitlariga to‘g‘ri kelsa chiniqish effekti yuzaga chiqadi. Boshlang‘ich sinf o‘quvchilari uchun ochiq havoda bo‘lish 3-3,5 soat, 6-8 sinflar uchun 2,5-3 soatga, katta sinf o‘quvchilari uchun –2-2,5 yarim soat ochiq havoda sayr qilish charchashni yo‘qotadi, psixoemotsional yuklamalarni yo‘qotadi, qon kislorod bilan yaxshiroq to‘yinadi, bosh miyaning ishi yaxshilanadi, uyqu yaxshilanadi.

Quyosh vannasi. Quyosh nurlari-kuchli ta’sir qiluvchi vosita bo‘lib undan ko‘p foydalanib bo‘lmaydi, ularni qat’iy doza bilan qabul qilishi kerak. Quyosh vannalari ovqatlanishdan 1 soat avval yoki ovqatlangandan 1,5 soat keyin qabul qilinadi. Och qoringa mumkin emas. Quyosh vannalari harakat qilayotgan holda qabul qilinsa yaxshiroq bo‘ladi. Quyosh vannasi qabul qilinayotganda boshni to‘g‘ri quyosh nurlaridan saqlash zarur. Quyosh vannasi qabul qilish uchun optimal vaqt-ertalabki soatlardir, Organizmning quyosh nurlariga moslashtirish uchun birinchi 2-3 kunlarda yalang‘och holda salqinda bo‘lish va shundan so‘ng quyosh vannalarini qabul qilish mumkin. Quyosh vannalarining uzoqligi: 1- vanna –5 min, 2 –vanna 10 min, 3- vanna 15 min va boshqalar. Quyosh vannasining umumiy vaqt –1 soatdan oshmasligi zarur.

YUqoridagi qoidalarga amal qilinmasa quyosh va issiq urishi, kuyish, markaziy qon sistemasi faoliyatining buzilishi kabi patologiyalarga olib kelishi mumkin. Quyosh vannasini quyidagi holatlarda qabul qilish mumkin emas: tana haroratining ko‘tarilishi, yo‘qori nafas yo‘llari katari, o‘pkaning o‘tkir yallig‘lanishi, buyrak kasalliklari qo‘zg‘alishi, yurak illatlari. Kattalarga quyosh vannasi qabul qilishga qarshi ko‘rsatmalar quyidagilardir: mastopatiya, bachadon miomasi, hafaqon kasalligi infarkt miokarddan so‘nggi holat va har-xil ankologik kasalliklar.

**Havo vannalari:** 16-18 gradus havo temperaturasida 8-10 minut qabul qiladi, keyin 25 minutga etganida havo temperaturasi 12 gradusga etkaziladi. Havo bilan chiniqishni jismoniy mashqlar bilan, o‘yinlar bilan qo‘sib olib boriladi. Havo vannasini qabul qilishda quyidagi qoidalarga rioya qilinadi: Havo vannasi tushlikdan 1 soat avval yoki 1.5 soat keyin qabul qilinadi. Havo vannasini har qanday vaqtida qabul qilishi mumkin. Havo vannasini yurish, muktab uchastkasida ishslash, harakatli o‘yinlar bilan qo‘sib olib boriladi. Vanna qabul qilinayotgan joyni keskin shamollardan saqlash zarur. Bir kunda havo vannasi bir marta qabul qilinishi zarur. Bu muolaja vaqtida o‘quvchilarni o‘zini his qilishini nazorat qilish: Bahor va yozda bolalar havoda yarim yalang‘och holda turishlari zarur, issiq quyoshli kunlarda yalangoyoq yurishlari tavsiya etiladi.

**Suv muolajalari-** intensivroq chiniqish vositasidir. Bu erda eng muhim chiniqtiruvchi omil –suv temperaturasidir. CHiniqishni yoz yoki kuzda boshlash zarur. CHiniqishni ertalab, uyqudan so‘ng yoki ertalabki gimnastikadan so‘ng yoki krossdan so‘ng bajarish lozim. Havo

temperaturasi 17-20 gradus bo‘lishi, suvning temperaturasi esa 33-34 gradus bo‘lishi kerak. Keyinchalik suvning temperaturasini har 3-4 kunda 1 gradusdan tushirish lozim. Bu muolaja paytida hech qanday noqulay hissiyotlar yokisovqotish bo‘lishi mumkin emas. Burun-tamoq sohasini chiniqtirish-tomoqni iliq suv bilan, keyin sovuq suv bilan chayqash. Sovuq havoda burun bilan nafas olish zarur, bunda bodomcha bezlari va tamoq shamollashining oldi olinadi. Havo burun-tomoq sohasidan o‘tayotib isiydi. Oyoq kaftlarini suv bilan yuvish, ustidan suv quyish ko‘zacha yoki leyka yordamida bajariladi. Suv temperaturasi 28-27 gradus, har 10 kunda uni 1-2 gradusga tushiriladi, lekin 10 gradus pastga tushmasligi zarur. Keyin oyoqlar artib quritiladi. Odatda bu muolaja kechqurun, uyquga yotishdan avval bajariladi. Oyoqlar vannalari: oyoqlarni suvli paqir yoki tog‘oraga tushiriladi. Boshlang‘ich temperaturacha –30-28 gradus, oxirgisi –15-13 gradus. Har 10 kunda uni 1-2 gradusga tushiriladi. Birinchi oyoqlar vannasining uzoqligi 1 min oshmasligi kerak, oxirida esa 5 min etkaziladi. Vannadan keyin oyoqni quriguncha artib, ishqalanadi. Kotrast oyoq vannalari. 2 ta tog‘ora yoki paqir olinadi. 1 ta paqirga issiq suv quyiladi, 2-siga esa sovuq suv quyiladi. Oyoqlarni birinchi 1,2-2 min davomida issiq suvga solinadi, keyin 5-10 gradusli suvga solinadi.

Bunday almashinuv 4-5 marta davom ettiriladi. Har 10 kunda sovuq suvning temperurasini 1-2 gradusga tushiriladi va kursning oxirida 15-12 gradusga olib kelinadi. YAlang oyoq yurish: qadimgi chiniqish usullaridan biridir. Kuz va yozda shug‘ullanish tavsiya etiladi. YAlang oyoq yurishning davomiyligi arning haroratiga bog‘liq bo‘ladi. (daryo yoki dengiz bo‘ylab yurish mumkin.)

Uy sharoitida sovuq suvda ho‘llangan gilam bo‘ylab yurish mumkin. Bundan tashqari sauna yoki xammomdan so‘ng qorda yalang oyoq yurish va keyin bug‘ xonaga kirib oyoqni isitish (tog‘oraga issiq suv quyib oyoqni solib o‘tirish 1-2 min) (ishqalash). Badanni sochiqda ishqalab artish-suv bilan chiniqishning boshlang‘ich etapidir. Buning uchun paxmoq sochiq sovuq suvda ho‘llangan holda ishlataladi. Ishqalash tartibi harakatning yo‘nalishi periferiyadan markazga qarab, tomir-nerv tugunchalari bo‘ylab. Suvning harorati har 10 kunda 1-2 gradusga tushiriladi. Kichik maktab yoshidagi o‘quvchilar uchun qishda boshlang‘ich harorat 32-30 gradus, yozda temperatura 28-26 gradus. O‘rtalama va yuqori sinf o‘quvchilari uchun esa qishda 30-20 gradus, yozda esa 26-24 gradusni tashkil qiladi. Oxirgi harorat esa 18-16 gradus va 16-14 gradusni tashkil qiladi. Nam sochiqda badanni ishqalashni ertalab gimnastikadan so‘ng bajarish lozim, keyin esa badanni quruq pahmoq sochiq bilan artiladi. Havo harorati 15-16 gradus.

Badanni suv bilan yuvish-chiniqishning navbatdagi etapidir. Boshlanishida suv harorati xona harorati bilan bir xilda bo‘ladi, keyinchalik esa sekin asta 20-18 gradusga etkaziladi. Ko‘zacha yoki leykadan foydalilanildi. boshni yuvish tavsiya etilmaydi. Kichik sinf o‘quvchilari uchun boshlang‘ich harorat qishda 30 gradusdan past bo‘lmasligi zarur, yozda 28 dan kam

bo‘lmaydi. Oxirgi harorat esa shunga mos ravishda 20 gradus va 18 gradusni tashkil qiladi. kamaytirish asta-sekinlik bilan har kunda amalga oshiriladi. O‘rtta va katta sinf o‘quvchilar uchun esa suv harorati qishda boshlang‘ich- 28 gradusni oxirgi –18 gradusni yozda 24 gradusni-oxirgi 16 gradus bo‘lishi zarur. Muolajadan so‘ng badanni qurigunicha yaxshilab artiladi.

Ochiq suv havzalarida cho‘milish-eng yaxshi va qudratli chiniqish usulidir. Bunda quyidagi qoidalarga amal qilinishi zarur: Ovqatlanishdan 4 soat avval yoki undan 1,5 saot keyin cho‘milish zarur, suvda faol harakat qilish kerak (cho‘milayotib har-xil mashqlar bajarish zarur). Suvga terlagan, isib ketgan yoki kasal holatda tushib bo‘lmaydi. Suvning harorati –20-28 gradus past bo‘lmasligi zarur. Cho‘milgandan so‘ng badan qurigunicha artiladi. (sochiq bilan) keyin issiq quruq kiyim kiyiladi. Cho‘milishning davomiyligini suvning haroratiga qarab aniqlanadi. Suvning harorati qancha past bo‘lsa, unda shuncha ozroq cho‘milish zarur bo‘ladi. **Xammom** – xammom va suv muolajalari yaxshi chiniqtiruvchi ta’sir ko‘rsatadi. Kichik yoshdagi bolalarga 90 gradusdan oshiq saunalarga kirish mumkin emas.

**Talabalarni jismoniy tarbiyalashning shifokor nazorati.** O‘quv rejalariga ko‘ra jismoniy tarbiya darslari o‘quv yurtlarida 1-2- kurslarga majburiy hisoblanadi. Keyingi kurslarda fakultativ mashg‘ulotlar bir xafizada 2 marta, tibbiy ko‘rik etapida 1 marta o‘tkaziladi. Talabalarni jismoniy tarbiyalanishining shifokor nazorati quyidagilarni o‘z ichiga oladi: jismoniy rivojlanish va sog‘lik holatini tekshiruvi: jismoniy yuklamalarning organizmga ta’sirini testlar yordamida aniqlash: mashg‘ulot o‘tkaziladigan joy, jihozlar, kiyim, oyoq kiyim, va binoning san-gigienik holatini baholash: dars jarayonida shifokor-pedagog nazorati: jismoniy tarbiya darslarida jarohatlarning oldini olish: (profilaktika qilish)

Ma’ruzalar, plakatlar va suhbatlar yordamida jismoniy madaniyat, chiniqish va sport bilan shug‘ullanishning organizmga sog‘lomlashtiruvchi ta’sirini propaganda qilish; SHifokor nazorati umumiy sxema bo‘yicha testlar o‘tkazish, Ko‘rish, antropometrik tekshiruvlari va tor soha mutaxassislari ko‘rigidan iborat. (urolog, ginekolog, terapevt, teravmotolog).

**O‘rta yoshlilar va qariyalarni shifokor nazorati.** Qariganda organizmdagi o‘zgarishlarni quyidagicha ta’riflash mumkin. Harakatlar koordinatsiyasi buziladi, muskul to‘qimasining strukturasi suyuqlik yo‘qotilishi bilan birga kechadi, teri quruqlashadi, garmon chiqish kamayadi. (Adenokortikotrop gormon AKRG), shu sababli buyrak usti bezi gormonlarining sintezi va sekretsiyasi buziladi. Bo‘qoq bezining funksiyasi buziladi (tiroksin gormoni, moddalar almashinuvini (oqsil sintezini boshqaruvchi) yog‘ almashinuvi buziladi va xolesterin to‘planib, tomirlar skleroziga olib keladi: Insulin etishmovchiligi yuzaga keladi, (oshqozon osti bezining funksional etishmovchiligi) gmokozaning hujayralarga o‘tishib va uning xazm bo‘lishi, glikogen sintezi pasayadi, oqsil biosintezi qiyinlashadi: Jinsiy bezlar faoliyati susayadi, natijada muskul

kuchi susayadi. YOsh o'tishi bilan muskullar hajmi kamayadi, elastikligi pasayadi, kuchi va qisqaruvchanligi pasayadi.

Tekshiruvlar shuni ko'rsatadiki mushak hujayralari protoplazmasining eng muhim o'zgarishlar gidrofilligining pasayishi va oqsil kolloidlarining suv ushslash imkoniyatining pasayishidir. YOsh o'tishi bilan modda almashinuvi buziladi va yurakning minutli hajmi kamayadi. Qariyalarda arteriyalarning elastikligining buzilishi natijasida sistolik bosim oshishga moslashgan. Bundan tashqari qisman muskul tolalari qo'shuvchi to'qima bilan almashadi, muskul atrofiyasi yuzaga keladi. O'pka to'qimasi elastikligining yo'qolishi munosabati bilan o'pka ventilyasiya pasayadi, natijada to'qimalarning kislorod bilan ta'minlanishi ham kamayadi. Tajriba shuni ko'rsatadiki, engil jismoniy mashqlar bilan shug'ullanish qarishning ko'pgina simptomlarining rivojlanishini sekinlashtiradi. YOshga xos va aterosklerotik o'zgarishlarni rivojlanishini to'xtatadi. Organizmning asosiy (bosh) tizimlarining funksional holatini boshqaradi.

Bunday mashqlarga yurish, suzish, velosipedda yurish, velotrenajyorda trenirovka hamda har kungi ertalabki gimnastika dush, bir haftada bir marta sauna qabul qilish, engil ovqatlanish va boshqalar. Mashqlarga yugurish, sakrash, og'irlik bilan bajariluvchi mashqlarni qo'shib bo'lmaydi, chunki bu mashqlar jarohatning ko'payishlariga olib keladi.

O'rta yoshlilar va qariyalarning sog'lik holati, ish qobiliyati va jismoniy tayyorgarligini aniqlash; Jismoniy madaniyat va sport bilan shug'ullanishning organizmga ta'sirini sistematik ravishda kuzatish; Jismoniy mashqlarni bajarish jarayoni shifokor-pedagog nazorati va shug'ullanuvchilarning o'z-o'zini kuzatish ya'ni nazorat qilish sistemasiga o'rgatish; harakat rejimini tanlashda, hamda jismoniy madaniyat bilan shug'ullanishning effektivligini oshiruvchi umumiy rejimini tanlashda shifokor maslahati.

Jismoniy madaniyat bilan shug'ullanishga qarshi ko'rsatmalar:

1. O'tkir va nim o'tkir kasalliklar.
2. Nerv tizimining rivojlanib boruvchi kasalliklari:
3. Qon aylanishining etishmovchiligining II va III darajalari.
4. YUrak va yirik tomirlar anevrizmi; tez-tez qaytalanuvchi ichki qon ketish (12 barmoqli ichak yarasi, gemorrroy, ginekologik va boshqa kasalliklar).

Normal fiziologik qarilik xech qanday kasalliklarsiz kechadigan fiziologik jarayon. Qariyalarning ratsional ovqatlanishi-qonuniy fiziologik qarish jarayoniga patologik jarayonlarni qo'shilishining oldini oladi. Qarishning mazmuni bu biologik qonuniyat asosida atrofik va degenerativ jarayonlarning rivojlanishi yotadi.

**Jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlarida organizmga ijobiy va salbiy ta'sir etuvchi omillarni o'rganish**

**Jarohat**-bu qandaydir tashqi ta'sir natijasida to'qimalar butunligining buzilishidir. Sport jarohatlarining oldini olish uchun trener har xil jarohatlarga olib kelishi mumkin bo'lgan asosiy shart va sharoitlar, sabablarni yaxshi bilish kerak. Sport jarohatlari uchun yopiq jarohatlar harakterli: lat eyish, cho'zilish, yirtilish va boshqalar. Jarohatlarning harakteri va ularning og'irligi sportning turiga bog'liq. Masalan, tog' chang'i sport turida ko'pincha suyak sinishi, bobsleyda-miya chayqalishi ko'p uchraydi.

Tayanch harakat apparati tramvalarining etiologiyasi quyidagicha: Mashg'ulotlar olib borish uslublaridagi xato va kamchiliklar (kuchaytirilgan tayyorgarlik, yoshni hisobga olmagan holdagi razminka va boshqalar) mashg'ulotlar olib borishni tashkil qilishdagi kamchiliklar (yoritilishining yomonligi, tayyorlangan sporidlar, qoplama va boshqalar). Material-texnik bazaning noto'g'riliqi (yoshga mos tushmaydigan sifatlar oyoq kiyim va ust kiyimlar). Noqulay iqlim va gigienik sharoitlar (nam, havo, issiq suvning temperaturasi basseynidagi). SHug'ullanuvchilarining noto'g'ri harakati (shoshilishi, diqqatini bir joyga qo'ymasligi). Tayanch harakat apparatining to'g'riliqi xususiyatlari. Jismoniy tayyorgarlikning etarli emasligi. Muskullar va qon tomirlarning spazmga moyilligi o'ta charchash natijasida harakatlar koordinatsiyasining (muvozanatining) buzilishi;

Jarohatlanish va kasallanishdan so'ng tiklanish muddatiga rioya qilmaslik, mashg'ulotlarni to'liq tuzalmasdan turib boshlash; Trenirovkalarga yoki tayyorgarliklarga shifokor ko'rigisiz ruxsat berish; Tayanch harakat apparati jarohatlari va kasalliklarning yuzaga kelishiga sport darajasi, yoshi, jinsi, sport bilan shug'ullanish stoji, iqlim geografik sharoitlar va boshqalar. Jismoniy madaniyat va sport mashg'ulotlarida, tayanch harakat apparati jarohatlari va kasalliklarning oldini olish quyidagilarning o'z ichiga oladi:

**To'liq razminka;** Gigienik talablarga rioya qilish (xona temperaturasi namlik, yorug'lik, sport inventarlarini tanlash va tayyorlash). Uslubiy tamoyillarga rioya qilish, (yuklamalarni o'ta kuchaytirmasligi, tayyorgarlik darajasini hisobga olish, yosh, jinsi, mashg'ulotlarning sistematikligi, sog'ligi holatini va boshqalar). U yoki bu sport turiga xos bo'lgan uslubiy qo'llanma yoki himoya qilish. Massaj, o'z-o'zini massaj, hammom qabul qilish. Sport faoliyatining to'xtatilishi sportchining tayyorgarlik darajasini va sport ko'nikmalari pasayishiga olib keladi.

Tayanch harakat apparati kasalliklari va jarohatlarini oldini olish va konservativ davolash uchun reabilitatsion majmua yaratilgan. YUqori malakali sportchilar uchun majmua 2 etapdan iborat. Birinchi etap (tiklanish uchun davo, jarohatdan 3-5 kun keyin)-og'riqni kamaytirish, muskul gipertonusini kamaytirish, shishlarni tugatish, to'qimalar gipoksiyasi va gipoksemyasini tugatish, mikrotsirkulyasiyani normallashtirish. Ikkinci etap: (kasallik yoki jarohat 5-7 kun keyin) trenirovkalar tiklanganidan so'ng regeneratsiya jarayonini tezlashishiga imkoniyat

yaratadi, funksiyasini tiklanishiga yordam beradi, muskul kontrakturalari yo‘qoladi. Reabilitatsiyaning ikkinchi etapida trenajyorda mashg‘ulotlar boshlanadi va kriomassaj bilan gidrokinezoterapiya, segment-reflektor massaj, oksigenoterapiya bilan mazlar qo‘llaniladi, mo‘miyo va mazlar bilan elektrofarez o‘tkaziladi.

Trener uchun sportchi jarohatlanganidan yoki kasallanganidan so‘ng trenirovkalarini qaytadan boshlash muddati muhimdir. hozirgi vaqtida trener sub’ektiv ma’lumotlarga tayanib, jarohatning maxsus xususiyatlarini, to‘qimalar regeneratsiya muddatini, sport stajini, yoshi va sportchining funksional holatini esa hisobga olmaydi va natijada jarohat yoki kasallik qaytalanishi yoki surunkali shaklga o‘tishi mumkin. Har qanday jarohat lokal muskul spazmi bilan birga kechadi, bu esa nerv to‘qimalarini retseptorlarining zararlanishi va gematomaning bosim bilan ularga ta’sir qilishi natijasida og‘riqning kuchayishiga sabab bo‘ladi. Kuzatishlar shuni ko‘rsatadiki, sportchining ahvoli, ya’ni o‘zini his qilish yaxshilanishi bilan to‘qimalarning regeneratsiyasi teng (parallel) ravishda emos balki kechroq rivojlanadi. Ana shuning uchun shishlar, muskullar, gipertonus va og‘riq yo‘qolganidan so‘ng trenirovkalar faqat teyplar yordamidagina mumkin. Teyplarning qo‘llanilishi tayanch harakat apparati kasalliklari va jarohatlanishlarini sportchilarda ozgina jismoniy yuklamalar bilan davolashga yordam beradi. Teyplar bilan engil jismoniy yuklamalar tiklanish davridagi davolashning birinchi kunlarida muskullarda qon aylanishini kuchaytiradi, to‘qimalar metabolizmini normallashtiradi, to‘qimalarga kislород etkazib berilishini ko‘paytiradi, to‘qimalarda oksidlanish jarayonlarini normallashtiradi. Qo‘l va oyoqlarning tayanch funksiyasini tiklaydi va bu bilan jarohatlangan to‘qimalardagi reparativ jarayonlarni faollaydi.

Teyplarni qo‘llash muddatti jarohatlangan to‘qimalarning regeneratsiyasi muddatiga, sportchining yoshiga, uning stajiga bog‘liq bo‘ladi va 15 kundan 30 kun va undan ham oshiq bo‘lishi mumkin. Lat eyish-bu to‘qimalarning qon tomirlar yorilishi bilan kechadigan zaralanishidir; bunda asosan suyakka yopishib turgan yumshoq to‘qima zararlanadi. Muskullar, suyak ust pardasi, bo‘g‘imlar, nervlar va boshqa organlar lat eyishi mumkin.

**Muskullarning lat eyishi:** Davosi: muz bilan massaj qilish vanna (50-55 gradus), tripsin yoki anestetiklar bilan elektroforez; DD-toki, ultra zvuk, 3-5 kundan boshlab massaj, trenajyorlarda mashqlar. Gidronizoterapiya.

**Suyak ust pardasi lat eyishi:** Davosi-muz bilan massaj yoki muzli applikatsiya parafin-ozokeritli applikatsiya, kodein yoki anestetiklar bilan elektroforez, induktotermiya, muskullar massaji, gidrokinezoterapiya. 1-2 hafta davomida.

**Muskul cho‘zilishi:** Bunda muskul tolalarining payga o‘tish joyida qisman yirtilishi yoki uzilishi mumkin. SHuning uchun 3-5 kunga gips qo‘yilib, iimobilizatsiya qilinadi va muz bilan

massaj, vanna, parafinozokeritli aplikatsiyalar, anestetiklar bilan, prinsip bilan, elektroforez, lazoniya bilan, ultraz vuk, mo'miyo bilan, segment zonalarini massaj, gidrokinezoterapiya.

**Umurtqa pog'onasining bog'lovchi apparatining cho'zilishi:** Ko'pincha haddan tashqari zo'r lab egilish natijasida umurtqa pog'onasining orqa yuzasining bog'lamlari (bo'ylanma va o'simtalararo) zararlanadi.

Bo'g'imlarning bog'lov apparatining cho'zilishi ko'p uchraydi. Nisbatan kaltaroq kopsula tolalarining uzilishi, boylamlarning cho'zilishi va ularning suyakka birlashish joyida yirtilishi yuzaga keladi. Ko'pincha bunday cho'zilish tizza, ilik, kaft bo'g'imlarida uchraydi. Davosi:-muz bilan massaj, vannalar (36-38 gradus). 3-4-kunlarda DD toklari, ozokeritli aplikatsiyalar va anestetiklar yordamida elektroforez.

**Gemartroz**-bo'g'im bo'shlig'iga qon quyilishi. Ko'pincha tizza bo'g'imi jarohatlanganida uchraydi. Bunda bo'g'imning konturi yo'qoladi, chunki shishib ketadi, hajmi oshadi, harakatlar og'riq tufayli chegaralanadi, tizza qopqog'ining qimirlashi harakterli bo'ladi. Davosi-muzli aplikatsiya yoki muzli massaj, gips qo'yish, parafin-ozokeritli amplifikatsiya, DD-toklari yoki elektroforez anestetiklar bilan, UVCH 4, 5, DJM va massaj, magnitoterepiya, gidroninezoterapiya 10-15 min.

**Gematoma**-to'qimalarda qon quyilishi va qon to'planishi, (muskullarda, teri osti kletchatkasida) bo'shliqlar va anatomik yoriqlarda qon to'planishi tomirlar zararlanganida yuzaga keladi. Davosi-muzli massaj yoki amplifikatsiya, qattiq bog'lab qo'yish, amplifikatsiya parafin bilan induktoterapiya №10, eletroforez tripsin yoki romidoza bilan lazolin, mumyo bilan ultrazvuk.

**Bursit:** Lat eyish yoki bo'g'im oldi shilliq sumkasining qayta-qayta jarohatlanishi natijasida bu sumkada shilliq, qon va limfa suyuqliklari aralashmasidan iborat massa to'planadi. Qayta jarohatlanganida yoki noto'g'ri davolansa travmatik bursit surunkali kechishga va tez-tez qo'zg'alib turishga o'tib qoladi. Davosi-UFO kunora №2-4 (3-4 biodoza). Elektroforez tripsin bilan parafin-ozokeritli amplifikatsiyalar, UVCH №5, ultrazvuk; gidrokinezoterapiya.

**Chiqishlar;** Suyaklarning bo'g'im oxirlarining turg'un siljishi, bo'g'im kapsulasining zararlanishi bilan, ba'zida bo'g'imni o'rab turuvchi to'qimalar ham zararlanadi (muskul, pay, nerv-tomir apparati va boshqalar). Bunda bo'g'im shakli o'zgarib, chiqqan qo'l yoki oyoq majburiy holatni egallaydi. Davosi: muz bilan massaj yoki muz amplifikatsiyasi, og'riq qoldiruvchilar va chiqqan bo'g'imni joyiga solib qo'yish va gips qo'yish. DD toklari, anestetiklar bilan elektroforez №5 elektrostimulyasiya, DJM, gidrokinezoterapiya. Elkaning odatiy chiqishiga ahamiyatsiz jismoniy yuklamadan keyin ham elkaning chiqib qolishi va oson solinishi harakterlidir. Davosi: YUqoridagiday.

**Menissitlar** (menisklarning zararlanishi). Tizza bo‘g‘imining yarim oysimon tog‘aylarining zararlanishi va bo‘g‘imning boshqa elementlarining ham zararlanishi bilan kechadi. Minisklarning zararlanishi ko‘pincha bo‘g‘imga qon quyilishi va refaol shamollah bilan birga kechadi. Bunday harakat uchun bo‘g‘im yorig‘ida og‘riq bo‘lishi, bo‘g‘imning vaqtini bilan yuzaga keladigan blokadasi-(meniskning bo‘g‘imlar yuzasi oralig‘iga kirib qolishi natijasida) ilikni burganda og‘riq paydo bo‘lishi. Davosi-davolashning jismoniy usullari faqat meniskning birinchi marta va qisman zararlanishida effekt beradi. DD toklar №10. Birinchi kunlari anestetiklar bilan elektroforez №5 induktotermiya №10, UVCH №5 ultrazvuk lazolin bilan. Ozokeritli aplikatsiyalar. Meniskning to‘liq yorilishida va surunkali menissitlarida fizioterapiya kam foyda beradi va menisk ektomiya tashrixi o‘tkaziladi. Tashrixdan keyin 2-3 kunda UVCH №5, bel massaji, son muskulining massaj, elektroforez, elektrostimulyasiya son muskuliga, gidrokinezoterapiya 3-5 kundan boshlab har kuni.

**Tendovaginit** qayta-qayta jarohatlanish natijasida paylar qinining aseptik yallig‘lanishidir (ishqalanish, ezilish natijasida). Pay va qin pardasi orasidagi sayoz qo‘shuvchi to‘qimada nuqtasimon qon quyilishi va shish natijasida fibroz hosilalar paydo bo‘ladi. Paratenonit ahillov payida va bilakning pastki qismining qayrilishi yuzasida ko‘p kuzatiladi. Davosi: UFO, DD-toki, №10; K bilan elektroforez, oyoqqa issiq vanna (38-41 gradus). Kasallangan joyning yuqori va pastki qismlarning massaji (sog‘lom joylarning) gidrokinezoterapiya, kriomassaj.

**Umurtqa pog‘onasining osteoxondrozi**-umurtqalararo diskning degenerativ jarayoni bo‘lib, fiziologik neyroendokrin qarshi jarayonining natijasidir, hamda qayta-qayta jarohatlanishi natijasida yuzaga keladi. Disklarning degeneratsiyasi natijasida umurtqa pog‘onasida bog‘lamlar, tomirlar, koreshoklarda refaol o‘zgarishlar sodir bo‘ladi; deformatsiyalangan ilmoqsimon o‘sintalar umurtqa pog‘ona nervlariga, tomirlarga bosim beradi va og‘riq hamda boshqa patalogik o‘zgarishlarni yuzaga keltiradi.

Bo‘yin yoki bo‘yin-ko‘krak osteoxondrozida davolashda DD toki №5 anestetiklar bilan yoki amplipuls terapiya №10, ultrazvuk, elektroforez nikotin kislotasi bilan, segment reflektor massaj, serovodorod vannalari, gidromassajlar va elektrostimulyasiya (bel muskullarining elektrostimulyasiyasi) diatermiya.

**Bel-dumg‘aza radikuliti**-orqa miya nervlarining koreshoklari zararlanganida yuzaga keladigan kasallik bo‘lib, beldagi va oyoqdagi og‘riq bilan va harakat funksiyasining buzilishi bilan harakterlanadi. Kasallikning rivojlanishiga uzoq jismoniy (kuchlanish) taranglik, jarohatlar, har-xil infeksiyalar sabab bo‘ladi. Davosi:-o‘tkir davrida issiq muolajalar mumkin emas, chunki ular og‘riqni kuchaytiradi. Quruq issiq, bel va oyoqning massaj qilishga ko‘rsatma beriladi. Ahillov payi va yuqoridagi muskullar massaj qilinadi.

**Bosh miya chayqalishi**-jarohat natijasida sodir bo‘lib, hushdan ketish bilan xarakterlanadi, (bir necha sekunddan bir necha minutgacha, jarohatning og‘ir yoki engilligiga qarab). Bosh miya chayqalganida retrograd amneziya, bosh og‘rig‘i, ko‘ngil aynishi, qayt qilish, qulqoq shovqin va umumiy holsizlik kabi belgilari yuzaga keladi. Uzoq vaqt davom etuvchi gemo va likvorodinamikaning buzilishi va vegetativ buzilishlar yuzaga keladi. Davosi-yotoq rejimi, og‘riq qoldiruvchi va (degidratlovchi) suv haydovchi vositalar, sovuq (muzli xalta) yoqa zonasiga qo‘yiladi, peshonaga va ensaga qo‘yiladi. UFO, brom elektroforez, yoki kalsiy elektroforez, vannalar kun aro 3-5 marta. YOqa sohasini massaj, pazal elektroforez 2-3 haftadan so‘ng gidrokinezoterapiya 10-15 min 2-3 hafta. Stugeron, nootropil yoki gommalon buyuriladi, vit S, polivitaminlar. Quruq havoli sauna va quyidagi tartibdagi massaj: oyoq, qorin, yoqa sohasi va bosh tartibdagi massaj taklif qilinadi.

Tayanch harakat apparati kasalliklari va jarohatlaridan so‘ng mashg‘ulotlarni tiklashning taxminiy muddatlari. Trenirovkalarining (mashg‘ulotlarning) tiklanish muddatiga sport turi, sportchining yoshi, jinsi ta’sir qiladi. SHuning uchun har bir konkret holatda mashg‘ulotlarga ruxsat shifokor va trener tomonidan hal qilinadi. Ammo lekin to‘qimalar regeneratsiyasining umumiy biologik qonunlari hukmronlik qilar ekan, ularga qat’iy rioya qilish kerak. Aks holda jarohat qaytalanishi ehtimoli mavjud!

O‘quvchilarning o‘sishi, rivojlanishi va sog‘ligini nazorat qilishda trener jismoniy tarbiya o‘qituvchisi bilan bir qatorda shifokor-pediatr va hamshira ham katta rol o‘ynaydi. Meditsina nazoratining vazifasi jismoniy tarbiya va sport bilan shug‘ullanish uchun meditsina guruqlarini aniqlash, keyinchalik esa o‘quvchilarning sog‘ligi va rivojlanishini doimiy nazorat qilishdir, jismoniy yuklamalarni korreksiya qilishdir, ularni rejalashtirish.

Sportchilarning sog‘ligi va funksional holatini yomonlashtiruvchi sabablar orasida-alkogol, chekish, anabolik dorilar qo‘llash, vazn haydash, autogemotronsfuziya alohida o‘rin tutadi.

**Autogemotransfuziya**-yoki qonli dopingni qabul qilish sportchilarga ta’qiqlangan. Bu usul kasalxonalarda bemorlarga operatsiyadan so‘ng qo‘llaniladi. Sport tajribasida autogemotransfuziya ko‘p hollarda man qilingan va ko‘pgina asoratlarni keltirib chiqarishi mumkin. Bu usulni 18 yoshgacha bo‘lgan sportchilarda qo‘llab bo‘lmaydi, anemiya, leykopeniya, trombotsitopeniya, gipoproteinemiyalarda, o‘tkir yallig‘lanishlarda, menstruatsiya paytida, buyrak va jigar funksiyalari buzilganida qo‘llab bo‘lmaydi. Qon quyish qonning ivish xususiyatini o‘zgarishiga, 20% hollarda esa gemolizga olib keladi.

**Alkogol qabul qilish.** Alkogol jigar, bosh miya va boshqa organlarga ta’sir qilib, ularning strukturasi va faoliyatini buzilishiga sabab bo‘ladi. Qabul qilingan alkogolning 90% i jigarda oksidlanadi, ya’ni zararsizlantiriladi. Alkogolning doimiy qabul qilinishi jigar hujayralarining tiklanishiga imkoniyat (vaqt) qoldirmaydi, hamda patologik o‘zgarishlar o‘zgarmas, ya’ni orqaga

qaytmaydigan darajaga etadi. Jigar hujayralaridan glikogen yo‘qolib, ularda yog‘ to‘planadi, natijada jigarning yog‘lanishi yuzaga keladi. Vaqt o‘tishi bilan jigar hujayralari o‘lib, ularning o‘rnida mikroskopik bo‘shliqlar hosil bo‘ladi, va ular yog‘ bilan (bo‘linayotgan) to‘ladi. SHunday qilib, jigarda yallig‘lanish-gepatit hosil bo‘ladi.

Bunday holatda jigar o‘z funksiyasini to‘liq bajara olmaydi va qonda o‘t pigmentlari paydo bo‘ladi. (normada o‘t pigmentlari o‘t bilan birlashtirilganda ichakda o‘tirib qolishi kerak). Natijada ichakda vitaminlar so‘rilishi, mikroelementlar so‘rilishi kamayadi. Alkogol-yurak muskuliga to‘g‘ridan-to‘g‘ri toksik ta’sir ko‘rsatib, uning strukturasini va modda almashinuvini o‘zgartiradi, AB ni ko‘taradi, YUQS va qon ivishi oshadi. Alkogol qabul qilinganidan 1-1,5 soat keyin-barcha suyuqliklarda uning borligi aniqlanadi. Qonda alkogol nisbatan uzoq turmaydi, lekin u eng muhim organlar- miya, jigar, oshqozon va yurakda to‘planadi hamda 15 kundan-28 kungacha saqlanadi. Bu muddat ichida qayta ichish alkogolning uzoqroq organizmda saqlanishiga imkoniyat yaratadi.

Markaziy nerv sistemasiga alkogol qattiq ta’sir ko‘rsatadi. Aqliy va jismoniy ish qobiliyati buziladi, harakat reaksiyalarining tezligi kamayadi, harakat kuchi va aniqligi kamayadi. Alkogolning kichik dozasi ham qo‘zg‘alish va tormozlanish jarayonlari orasidagi balansni (muvozanat) buzilishiga olib keladi. SHunday qilib, qo‘zg‘alish tormozlanishning pasayishi oqibatidir. Organizmga zararli ta’sir qilib alkogol, sportchining mashq qilish qobiliyati va tayyorgarlik darajasini pasaytiradi. Ma’lumotlarga qaraganda 1 l piva ichgan suzuvchi yoki konkida yuguruvchilarining tezlik ko‘rsatkichlari 20% ga kamayadi. 100 g aroq eshkak eshuvchilar natijalari 20-30% ga kamayadi.

Alkogol sovuq havoda organizmni isitadi degan fikr mavjud. Haqiqatdan ham u teridagi qon tomirlarini kengaytiradi va teriga qon kelishi ko‘payadi va ichgan odam issiqlikni sezadi ya’ni sovqotmaydi. Lekin terining kengaygan tomirlarida oqayotgan qon tashqi muhitga katta miqdordagi issiqlikni uzatadi, natijada tana harorati 1-2 gradusga pasayadi. Organizm tezda sovqotadi, agar ichgan odam buni sezmasa ham. Buning natijasida sovqotish va shamollash kasalliklari kelib chiqishi mumkin. Kuzatuvlar shuni ko‘rsatadiki, alkogol qabul qilish mashq‘ulotlar va musobaqalardan keyingi charchash va zo‘riqishni kamaytirmaydi, aksincha tiklanish jarayonini tormozlab, uzoq vaqtgacha sport shu qobiliyatini darajasini kamaytiradi.

**CHekish.** 1 dona sigaret chekilganida chekuvchining nafas yo‘llari orqali 20 l sigaret tutuni yutiladi. Bu tutunda 250 mg nikotin va 1000 x il zararli elementlar mavjud. Bu elementlarning zararlisi nikotin, fenol, efir yog‘lari, sinil kislotalari va chumoli kislotalaridir. Bular tutun bilan o‘pkaga tushadi. Uzoq va kuchli muskul ishi bajarilish jarayonida muskullar va miya kislorod bilan to‘yingan arterial qon bilan doimiy ta’milanishini talab qiladilar. Bu talab chekuvchi sportchilarda to‘liq qoniqtirilmaydi. Muskullarda charchash tezroq rivojlanib, ular

berilgan ishni oxirigacha bajara olmaydilar. Tajribalarning ko'rsatishicha muskul kuchi sigaret chekilganidan 10-15 min keyin 15% ga kamayadi. Muskul charchashi yuzaga kelib, harakat koordinatsiyasi buziladi, 25% ga .

Sigaret tutuni ta'siri bilan miyadagi qon tomirlarining oz miqdorda kengayishi yuzaga keladi, bu esa xuddi sigaret yordamida yangi kuch kelganda o'xhash tushuncha beradi. Lekin sigaretning bunday ta'siri juda qisqa vaqtli bo'lib, tezda miya, qon tomirlarining normaga nisbatan ko'proq rivojlangan torayishi bilan almashinadi. Natijada miyaning qon bilan ta'minlanishi yomonlashib, ish qobiliyati pasayadi.

CHekish—ochiqish hissini kamaytiradi degan fikr tarqalgan. Haqiqatdan ham sigaret ochiqish hissini engillashtiradi yoki bir muncha vaqtga butunlay ochiqish hissini yo'qotadi. Bu esa sigaret tutunidagi zaharli moddalarning qonga so'rilib, oshqozon va ichaklarda joylashgan nerv oxirlariga ta'sir qilishi va ochlik haqida beruvchi nerv impulslerning uzatilishini blokada qilishlari bilan bog'liq.

Eng xavfli modda-bu nikotin bo'lib, u markaziy nerv sistemasiga ta'sir qiladi. Avval u kichkina dozada qo'zg'alish, katta dozada esa tormozlanish ustunlik qiladi. YURAK qon sistemasi nikotin ta'sirida avval sekinlashadi, keyin esa tezlashadi. Nikotin ko'ngil aynishini chaqiradi, oshqozon shirasining kislotaliligini pasaytiradi, nafas olish yo'llari yallig'lanishini keltirib chiqaradi. Uzoq va ko'p chekuvchilarda nevrologik holatga harakterli bo'lgan simptomlar rivojlanishi mumkin: tez charchash, jahldorlik, xotira susayishi, bosh og'rig'i va boshqalar.

**Vazn (haydash) tashlash.** Ko'pgina sport turlarida (kurash, boks, og'ir atletika va boshqalar) musobaqlarda qatnashish uchun aniq bir vaznda turish kerak bo'ladi. Avvallari HOQ si tomonidan farmokologik preparatlar man qilingunicha diuretiklar yordamida kerakli vaznga erishilgan. Hozir dieta, hammom va boshqa usullar qo'llaniladi. Hammom va farmakologik preporatlar yordamida vazn tashlashda ko'pgina suyuqlik yo'qotiladi mikroelementlar, glikogen, vitaminlar ham yo'qotiladi. Degidratatsiya odamni jahldor qiladi, uyqusi buziladi, oshqozon-ichak yo'llari funksiyasi buziladi, ichi qotadi, muskullar tortishadi, kuchi kamayadi, keskinlik va tezlik yo'qoladi.

**Ovqatlanishni kamaytirish yo'li bilan vazn tashlash.** Ovqatni chegaralash yo'li bilan ozuvchilarda oqsilning etarli organizmga tushmasligi o't to'qimalari oqsillarining kuchli parchalanish bilan kechadi va bu manfiy azot balansiga olib keladi. Hammadan avval qon plazmasida oqsillar miqdori kamayib, gipoproteinemiya rivojlanadi. Normada qon plazmasidagi oqsil 6-8,2% ga teng, gipoproteinemiyada esa 3-5% ga tushadi. Gipoproteinemiya-suyuqliknii qondan-to'qimaga o'tishini ta'minlaydi va shishlar paydo bo'ladi. Qon oqsilidan so'ng jigar oqsili, ko'ndalang targ'il muskullar va teri oqsili sarflanadi. So'ng yurak muskullari va bosh miya oqsili sarflanadi.

**Anabolik steroidlar va stimulyatorlar qabul qilish.** Anabolik steroidlarning ta'sir qilish mexanizmi-ularning oqsil sintezini kuchaytirishi va muskul massasi va kuchini oshirishidadir. Steroidlar qabul qilinganida muskul massasi oshadi, lekin muskullarni qon bilan ta'minlovchi kapillyarlar soni esa o'zgarmaydi, natijada bu muskul to'qimasiga kislorod va ovqat mahsulotlarining etkazib berilishi buziladi. Sportchi mashq qilishni tashlaganidan so'ng uning muskullari bo'shashishi, ya'ni muskul to'qimasining yog' to'qimasiga aylanishi sodir bo'ladi, bu muskullar kuchini, releflashligini yo'qotadi. Anabolik steroidlar muskullarning elastikligini, yumshoqligini, qisqarish qobiliyatini yo'qotishga olib keladi, koordinatsiyasi buzilib ba'zi bir sport turlari bilan shug'ullana olmaydi. Steroidlar qabul qiladigan sportchilarda ko'pincha gemorroy qon oqishi, bepushtlik, jigar raki va o'lim ko'p uchraydi. Ayollarda muskullahish, ovoz o'zgarishi, ko'krak bezining kichrayishi, menstruatsiya sikli o'zgaradi. Nogiron bolalar tug'ilishi mumkin.

Kortikosteroidlar qabul qilinganda gipofiz va buyrak usti bezi o'rtasidagi o'zaro ta'sir va boshqaruv buziladi: infektion kasalliklarga beriluvchanlik oshadi. 1973 yili XOQ anabolik steroid garmonlarni va stimulyatorlarni dopinglar sinfiga kirgizib, ularning qabul qilinishini man qildi. Ularni bir necha gruppalarga bo'linadi.

1. Psixotrop stimulyatorlar (amfetamin va uning hosilalari)
2. Simpato mimetik aminlar (efedrin va uning hosilalari)
3. Markaziy nerv sistemasi har-xil stimulyatorlari (korlismin, lentazol)
4. Narkotik moddalar (morphin, kofein)
5. Anabolik steroidlar (nerobol, retobolil).

Jismoniy yuklamalar ta'sirida organizmda tiklanish va adaptatsiya (moslashuv) jarayonlari ham teng kechadi. Mashg'ulotlar jarayonida sportchilarning yuklamalarga moslashishi va yuklamalarni ko'tara olishlarini nazorat qilish zarur. Olingan ma'lumotlar asosida tiklash tadbirlari ishlab chiqiladi. YUklamalarga chidamlilik tiklanish jarayonlariga bog'liq bo'ladi. Tiklanish jarayonlari tez kechganida yuklamalarni ham, mashg'ulotlar sonini ham oshirish mumkin. Tanlovchi vositalarni shifokor va trener mashg'ulotlar yoki musobaqalar oldidan, musobaqa jarayoni davomida, musobaqalardan keyin yoki sport sezonidan keyin tavsiya qilishlari zarur.

Tiklanish vositalarining sinflanishi:

1. Impulslı yoki doimiy tok;
2. UVCH ultra yuqori chastotali o'zgaruvchan tok; SVCH, diatermiya;
3. Magnitli maydon past yoki doimiy chastotali tok;
4. Frankalizatsiya va aeronomizatsiya;
5. Svet bilan davolash;

6. Gidro va balneoterapiya;
7. Massaj;

**Gidro va balneoterapiya.** Gidro va balneoterapiya asosida ximik, mexanik va temperatura omillari yetadi. Suv muolajalariga organizm terining reaksiyasi, yurak-qon tomir, nerv, endokrin, muskul tizimlari reaksiyasi. Issiqlik almashinuvi va oksidlanish-qaytarilish jarayonlaridan iborat murakkab reaksiya bilan javob beradi. Davolovchi suv muolajalari qabul qilinganida bosh miya po'stlog'iga teridan, shilliq qavatlardan, tomirlar va ichki organlardan effektlar impulslar kelib tushadi. Suv teridagi retseptorlarni ta'sirlaydi, natijada nerv-muskul apparati retseptorlari ham qo'zg'aladi. Suvning issiqlik ta'sirida modda almashinuvi ko'tariladi, qon aylanishi yaxshilanadi, to'qimalar trofikasi yaxshilanadi. Masalan tizzagacha issiq oyoq vannalarida ilikdagi qon aylanish 6-7 martaga oshadi, arteriyalardagi bosim 4 marta oshadi. Issiq bundan tashqari analgetik va sedativ ta'sirlar ham ko'rsatadi. Muskul tonusini pasaytiradi, qo'shuvchi to'qimalarning cho'ziluvchanligini yaxshilaydi, immunologik jarayonlarni stimulyasiya qiladi. (fagotsitoz) va endokrin tizim faoliyatini yaxshilaydi.

Sovuqning teriga joyli ta'siri tomirning fazali o'zgarishi bilan kuzatiladi. Birinchi faza – tomirlar torayishi, ikkinchisi- tomirlarning kengayishi va ulardagi qon oqimining tezlashuvi, selektiv giperemiya fazasi. Sovuq ta'sirida tomirlar torayib, modda almashinuvi sekinlashadi, qon aylanishi yaxshilanadi. Organizm sovqotganida: yuzaki va chuqur to'qimalar o'rtasida temperatura gradienti rivojlanadi. Organizm to'qimalarini temperaturasining o'zgarishi to'qimalararo strukturalarning o'tkazuvchanligiga regenerativ va reparativ jarayonlarga ta'sir qiladi. Terining temperatura ta'sir qilayotgan segmentiga aloqador bo'lgan ichki organlarda ham teri-visseral refleksning borligi sababli tomirlar o'zgarishi yuzaga keladi. Masalan ko'krak terisining sovqotishi, o'pka tomirlarining torayishini chaqiradi, bel sohasining isitilishi buyraklar tomirlari kengayishi bilan kuzatiladi.

Umumiy salqinlashtiruvchi muolajalardan yurak ishini engillashtiradi, iliq muolajalar uning faoliyatini ozgina kuchaytiradi, issiqlari esa yurak ishini kuchaytirib uning haddan tashqari charchashiga olib keladi. Suvning issiq ta'siri tonusni pasaytiradi, ichak peristaltikasini kamaytiradi, oshqozon sekretor funksiyasini kuchaytiradi, oshqozon osti bezini, buyraklarda qon aylanishini kuchaytirib, siydik aylanishini kuchaytiradi. Dush-eng keng tarqalgan suv muolajalaridan biri-davolovchi profilaktika qiluvchi suv muolajasi.

**Suv osti dushi (gidromassaj)** basseyн yoki vannada "UVM-tangentor-8" apparati yordamida olib boriladi. Haftada 1-2 marta, uyqudan 2-3 soat avval 5 min dan 15 minutgacha davom ettiriladi. Dengizda cho'milishi, ko'lда, vannada cho'milishi chiniqtiradi. Kontrast vannalar, vibratsion vanna, gipertermik (suv harorati 39-43 gradus) miozit, miofassitlarda qo'llaniladi. Galvanik vannalar, elektrovibro vanna, galvanik tok, yod-brom vannalari.

**Massaj va davolash jismoniy tarbiyasi.** Massaj og‘riq qoldiruvchi ta’sir qiladi, shuning uchun jarohatlarda ko‘pincha birinchi kundanoq massaj, keyinchalik esa davolash jismoniy tarbiyasi qo‘llaniladi. Massajning vazifasi: muskullar gipertonusini kamaytirish, og‘riqni pasaytirish, shikastlangan organlardagi qon va limfa oqimini yaxshilaydi, to‘qimalardagi metabolizmni tezlashtiradi, shikastlangan to‘qimalarda giperemiya chaqiradi. Massajdan keyin bemor namlangan kislород bilan 8-10 min davomida nafas oladi. Tayyorlovchi massaj-mashg‘ulotlardan avval bajariladi. Vazifasi:

1. Psixoemotsional holatini normallashtirish.
2. Nerv muskul apparatini kelasi ishga tayyorlash.
3. Sportchining chaqqonligini oshirish.
4. Jarohat va kasalliklarning oldini olish.

Tayyorlovchi massaj usuli quyidagi uslubda bo‘ladi, silash, ishqalash, g‘ijimlash, vibratsiyalar. 5-15 min. Avval yoqa sohasi, orqa, oyoqlarning orqa tomoni, keyin orqaga yotgan holda bo‘yin, ko‘krak qafasi, oyoqlarning old tomoni va qorin mashg‘ulotlardan 30-45 minut avval bajariladi. Reparativ massaj: - tiklovchi massaj bo‘lib, uning maqsadi metabolizm mahsulotlarining infaolatsiya qilish, qon va limfa oqimini yaxshilash, muskul tonusini, muskul qo‘zg‘alishini, charchagan muskullar funksiyasini, sinergist muskullar, antagonist muskullar va yordamchi muskullarning funksiyasini tiklashdan iborat. Preventiv, (profilaktik) massaj vazifasi:

1) muskullar qon oqimini tiklash (mikrotsirkulyasiya) 2) muskullar gipertonusini yo‘qotish, 3) metabolizmni normallashtirish (mochevina va laktotning oshiqcha miqdorini chiqarib tashlash) 4) spinal motoneyronlar funksional holatini faollash, 5) nerv muskul apparatining barcha zvenolarni faollash, 6) simmetrik biologik faol tochkalarda (BAT) teri haroratini tiklash. Preventiv masaj orqadan, ayniqsa paravertebral zonalardan boshlanadi, keyin bo‘g‘imlar, paylarni suyakka yopishish joyi massaj qilinadi. Preventiv massaj uslubi tayyorgarlik, asosiy va tugallanuvchi qismlardan iborat.

Sportchilarning sauna qabul qilishlari. Sauna-bu charchashga qarshi yaxshi kurash vositasidir. Etarli darajada tez jismoniy ish qobiliyatini tiklaydi, vazn tashlashga yordam beradi, shamollash kasalliklarining profilaktika qiladi. Sauna ta’sirida yurak qon-tomir, nafas va muskul tizimlarida yaxshi siljishlar yuz beradi. Oksidlanish, qaytarilish jarayonlari tezlashadi. Mikrotsirkulyasiya modda almashinuvidir.

Qonning taqsimlanishi, yaxshilanadi, ter ajralishi kuchayadi va ter bilan birga motobolizmning mahsulotlarini chiqarish tezlashadi. Muskul tonusi pasayadi. Sauna teri funksiyalarining yaxshilanishiga biologik himoya kuchlarining oshishiga, tomirlarni kuchayishiga sabab bo‘ladi. Sauna davolovchi vosita sifatida quyidagi kasalliklarda tavsiya qilinadi: Rinit, bronxit, osteoxondroz radikulit, miozit va boshqa kasalliklarda.

**Sauna** qabul qilinganida suv-tuz, kislota ishqoriy muvozanat va torlik gomeostaz buziladi. Teri harorati -26 gradusga , tana harorati esa- 0,8 gradusga oshadi. Nafas olish soni kamayib, chuqurlashadi. Sauna, grippda, anginada, menstruatsiyada, miya chayqalishida, hafaqon kasalligida, sistit, otit, jarohat tayanch harakat apparati. Saunadan faqat shifokor ruxsati bilan foydalaniladi.

**Bug‘xona** gigienik, profilaktik, tiklovchi va davolovchi vositadir. Havo harorati 50-60 gradus, namligi 90-100%. Bug‘li hammom modda almashinuvini yaxshilaydi, charchoqni yo‘qotadi. Undan ortiqcha vaznni tashlashda, xronik jarohatlar va kasalliklarning oldini olishda foydalaniladi. Qo‘shuvchi to‘qimali hosilalarning cho‘zuvchi cho‘ziluvchanligini oshiruvchi mashqlar. CHarchoqni yo‘qotish, tayanch harakat apparati jarohatlari va kasalliklarining oldini olish maqsadida muskullarning cho‘ziluvchanligini oshiruvchi mashqlar kompleksi ishlab chiqilgani va massaj bilan qo‘sib olib boriladi. CHo‘ziluvchanlikni oshiruvchi mashqlar MNS ga impulsarning kelishini kuchaytiradi. Bu esa nerv muskul apparati reflektor o‘zgarishiga olib keladi, muskul tonusini pasaytiradi, og‘riqni yo‘qotadi, shishlarni yo‘qotadi, charchoqni kamaytiradi, asablarni bo‘sashtiradi, uyquni normallashtiradi. CHo‘ziluvchanlikni oshiruvchi mashqlarni quyidagi xollarda ta’qiqlanadi: osteoporoz, menisklarning zararlanishi tizza bo‘g‘imining kreftsimon bog‘lamlarining zararlanishi, elka bo‘g‘imida odatiy chiqishlar, tovon tagi peritenoniti, qoqsoartroz va boshqalar. Muskullarning o‘tkir jarohatlarida ham mashqlar ta’qiqlanadi. CHo‘ziluvchanlikni oshiruvchi mashqlar faol va passiv bo‘ladi.

**Oksigenoterapiya.** Gipoksiya va gipoksemiya almashinuv jarayonlarining o‘zgarishiga olib keladi. Gipoksiyada va charchashda miokarddagi katekolanimlar zahirasi kamayib ketishi hisobiga va yurakning adrenorefaolligini pasayishi hisobiga glikogen mobilizatsiyasi buziladi. Ion o‘tkazuvchanligining buzilishi gipoksiyada to‘qimalar almashinuvini o‘zgarishi bilan bog‘liq. Bu esa artritlarga xos og‘riqning kelib chiqishiga sabab bo‘ladi. Gipoksiya tomir o‘tkazuvchanligini oshiradi, qo‘sishimcha to‘qimani namiqb qolishiga, kollagen to‘qimalarning erishiga, to‘qimalar proliferatsiyasi, tomirlar devorining degenerativ o‘zgarishi va nekroziga olib keladi. Joyli gipoksiya suv va oqsilning qondan tomir devoridan chiqib ketishiga sabab bo‘ladi: bu esa o‘z navbatida kislорodning to‘qimalarga diffuziyasini kuchaytiradi. Kislорodning etishmovchiligida kislota-ishqoriy balansi buzilib, organizmda sut kislotasi ko‘payib ketadi. Kislорodni davolash maqsadida yuborishning juda ko‘p yo‘llari bor. Kislорodni teri ostiga, periartikulyar va bo‘g‘im bo‘shlig‘iga yuborish mumkin. Oksigenoterapiya to‘qimalarni zararlantirmaydi, qon aylanishini faollaydi, reparativ regeneratsiyani kuchaytiradi.

To‘qimalarning kislорod bilan ta‘minlanish tezligi qonning hajmiga bog‘liq, qonning hajmi esa o‘z navbatida qon oqimining tezligiga bog‘liq. Muskullarning metabolik ehtiyojiga zarur bo‘lgan kislорod miqdorining etishmasligi (og‘ir muskul ishida, respirator, sirkulyator

buzilishlar, qonning kislorod tashish yoki etkazib berish funksiyasining buzilishi, nafas olinayotgan havoda kislorodning kamligi) to‘qimalar gipoksiyasiga olib keladi. Katta jismoniy yuklamalardan so‘ng tayanch harakat apparati jarohatlari va kasalliklaridan keyin mikrotsirkulyasiya buzilganida, to‘qimalarni kislorod bilan to‘liq ta’minlash maqsadida oksigenoterapiya qo‘llaniladi. Kislorodni burun koteterlari orqali ham yuborish mumkin, bunda burun orqali faol nafas olinadi.

### **To‘g‘ri ovqatlanish- ish qobiliyatini tiklashning bosh omili**

Jismoniy yuklamalarning ortishi energiya sarfining oshishiga sabab bo‘ladi, bu esa o‘z navbatida oziq moddalarga bo‘lgan talabni oshiradi. Sportchining sport turiga qarab 1 kunda sarflangan energiyasini tahminan hisoblab chiqib, ovqatga bo‘lgan talab miqdorini aniqlanadi. Ovqatning asosiy ahamiyati uning energiya materiali va plastik material vazifasini bajarishidir (organ va to‘qimalarning tiklanishi uchun). Kunlik ovqat ratsioni uning tarkibidagi yog‘, oqsil, uglevod, mineral moddalar va vitaminlarning bir-biriga nisbatli etarli darajada bo‘lsagina, to‘g‘ri tuzilgan hisoblanadi. Ovqat tarkibida oqsil 14%, yog‘ 30%, uglevod 56% ni tashkil qilishi zurur.

**Ichimlik rejimi.** Organizmdagi suvning umumiy miqdori uning vaznining 60-65% ini tashkil qiladi, ya’ni 40-45 foiziga teng bo‘ladi. Bu suvni hujayra ichi suvi (intratsellyulyar) va hujayra tashqi suviga bo‘lish qabul qilingan (ekstrotsellyulyar). Suv qon va limfaning tarkibiy qismiga kiradi, ovqatni erituvchi, tanadagi issiqlikni tashuvchi va boshqaruvchi vazifasini bajaradi. Organizmdagi barcha suvning yarmi muskullarga to‘g‘ri keladi, 8 dan 1 qismi skeletga, 20 dan 1 qismi qonga to‘g‘ri keladi. Sportchining suyuqlik qabul qilish rejimi mashg‘ulotlar harakteri, sport turi, ovqatlanish turi va iqlim sharoitlariga qarab boshqarilishi zarur. 1 kunda normada 2-2,5 litr suv qabul qilinishi kerak. Oz yoki ko‘p suv qabul qilish zararli, suvsiz ovqat mahsulotlarining so‘rilishi, tashilishi va murakkab aylanish jarayonlari hamda to‘qimalardan almashinuv jarayonlari mahsulotlarini chiqarib tashlash va issiqlik boshqaruvini amalga oshirish mumkin emas. Organizmnинг suvga ehtiyoji uning yo‘qotilishi bilan aniqlanadi, chunki normada qabul qilinayotgan va chiqarilayotgan suyuqliklar orasida muvozanat bo‘ladi. Bu muvozanat suv ajratish sistemalari funksiyasining murakkab nerv-gumoral boshqaruvi natijasida ushlab turiladi. Ayrish organlariga buyraklar, teri, ichak, o‘pkalar kiradi va ular ichki muhitning doimiyligini saqlaydi.

Sportchilarni yirik musobaqalarga tayyorlashda ekogigienik omillar sistemasi:

- mashg‘ulot va musobaqalar gigienasi.
- sotsial –turmush gigienasi.
- kunlik rejim va shaxsiy gigiena.
- ovqatlanish vitaminlashtirish va ichimlik ichish rejimi.
- gidrobalneoterapiya kislorod kokteyli, sauna.

Sanitar gigienik tadbirlarning ijrosida trener, komanda shifokori, massajist, sportchilar qatnashadi. San-gigienik tadbirlarning vazifasi: kasalliklar va jarohatlarning oldini olish sog'likni saqlash, sportchilarni noqulay iqlim sharoitlariga tezroq moslashishlarini ta'minlash (tog' iqlimi, issiq va nam iqlimlarga). Organizmga salbiy ta'sir qiluvchi ekogigienik omillar. Sportchilarning yashash sharoitlari barcha talablarga javob berishi (dush, vanna, televizor), mehmonxona ko'kalamzorda yoki dengiz bo'yida joylashishi zarur. Bu omillar sportchiga yuqori sport natijalariga erishishiga yordam beradi.

**Ekogigienaning** asosiy muammosi-bu halqni toza havo bilan ta'minlash muammosidir. Organizm havoning sifatiga va uning tarkibiy qismining doimiyligiga katta talab qo'yadi. Kislorodsiz organizm yashay olmaydi. Havoning fizik xususiyatlari va uning xususiyatlari dengiz bo'yidan balandligiga va odamlarning turmushi va sanoatning rivojlanganligiga bog'liq. Atmosfera havosining zararlovchi moddalariga chang, ko'mir changi, uglerod oksidi, har-xil kislotalar va bug'lari hamda gazlar kiradi. Simob, fenol, marganets kabilar juda ham zararlidir. Avtomobillar ishlashidan, zavod va fabrikalar ishidan juda ko'p zaharli moddalar chiqib organizmga havo bilan birgalikda kirib joylashadi. Bu moddalar kanserogen va radioaktiv xususiyatlarga ega. Atmosferaning zararlanish darajasi havoning namligiga bog'liq bo'ladi. Sanoat rivojlangan royonlarning yorug'lik olishi atrofdagi zavod va fabrikalari yo'q royonlarga nisbatan 40-50% ga kam bo'ladi. Havoni ifloslanishi daraxtlar uchun ham zararlidir. Chang o'ziga toksik kanserogen, mutagen va radiomimetik moddalarni yopishtirib olib, odamning burni va halqumi shilliq qavati eroziyasini, atrofiyasini, traxeyaning yallig'lanishini, bronxial astmani rivojlantiradi. Havoni ifloslantiruvchi asosiy manbalar-tuproq, uy pechlari, sanoat korxonalari va elektrostansiyalar, transportlardir. Hozirda million avtomobillar atmosfera havosiga 200 mln tonna korbonat angidrid, 40 mln tonna uglevodorod va 20 mln tonna azot oksidlarini chiqaradilar.

**Ultrabinafsha nurlanish.** SHamollash kasalliklariga beriluvchi sportchilar kuz, qishda oyoq kaftiga 5-20 doza ultrobinafsha nurlanish oladilar. Ko'pincha quyosh nurlaridagi ultrobinafsha nurlari etishmovchiligining natijasida "D" vitamin etishmasligi rivojlanadi. Qish kunlarida zallarni kvarslash dam olish xonalarida, echinish xonalarida aeroionizatorlar zarur. Tuproq-o'simlik-odam yoki tuproq o'simlik-hayvon-odam zanjiri bo'yicha radionuklidlar ovqat bilan odam organizmiga 94% xollarda tushadi, suv bilan 5% xollarda, havo orqali esa 1% hollardagina tushadi. Biomikroelementlar organizmnинг fiziologik ehtiyojiga qarab ma'lum miqdorda bo'lishi zarur. Bu miqdordan oshib ketsa ular organizmni zaharlaydi, xavfli oqibatlarga olib kelishi mumkin.

### ***O‘quvchiga tavsiyalar***

1. Jismoniy tarbiya va sport mashg‘ulotlari organizmni jismoniy rivojlantirish va sog‘lomlashtirishga katta ta’sir ko‘rsatadi, shuning uchun sog‘lom turmush tarzini odat qiling va sport bilan muntazam shug‘ullaning!.
2. Noto‘g‘ri tashkil etilgan sport mashg‘ulotlari va og‘ir jismoniy yuklamalar organizmga salbiy ta’sir etadi., shuning uchun reja asosida va vrachg‘pedagog nazoratida shug‘ullaning!
3. SHifokor tavsiyasisiz dori vositalaridan foydanish, kun tartibini qoidalariiga rioya qilmaslik, ovqatlanish rejimini buzish salbiy ta’sir etuvchi omillaridan hisoblanadi, shuning uchun individualik yuriting!
4. Jismoniy tarbiya va sport mashg‘ulotlarini organizmga ijobiy va salbiy ta’sirlarini o‘rganish uchun munatazam tibbiy nazoratdan o‘tib turish lozim, shuning uchun sport tibbiyoti dispanserida nazoratda bo‘ling!!!

### **Foydalanilgan adabiyotlar**

1. Vatan sajdahoh kabi muqaddasdir. Karimov I. Toshkent. 1995
2. O‘zbekiston demokratik taraqqiyotining yangi bosqichida. I.Karimov Toshkent. 2005
3. Postnikova V. M. Lechebnaya gimnastika dlya sportsmenov. Moskva.1989.
4. Brexman I. I. Valeologiya nauka o ozdorove. Moskva.1990.
5. Dembo. D. F. Detskaya sportivnaya meditsina. Moskva.1991.
6. Dubrovskiy V.I. Lechebno‘y i sportivno‘y massaj. M. SHag. 1994.
7. Dubrovskiy V.I. Lechebnaya fizicheskaya kultura. M. Vlados. 1999.
8. Dubrovskiy V.I. Sportivnaya meditsina. M. Vlados. 1999.
9. Salomov R.S. Sport mashg‘ulotlarining nazariy asoslari. 2000 y. Toshkent.
10. Axmatov M.S. Uzluksiz ta’lim tizimida ommaviy sport-sog‘lomlashtirish ishlarini samarali boshqarish. 2001y. Toshkent.
11. Koshbaxtiev I. A. Valeologiya asoslari. 2001y. Toshkent.
12. Sharipova D.D. Formirovanie zdorovogo obraza jizni. 2001g. Tashkent.
13. Gigienna fizicheskogo vospitaniya i sporta Darslik Vaynbaum YA. S. Moskva 2002
14. Jismoniy mashqlarning fiziologik asoslari. Kurbonov SH. Kurbonov A. Toshkent.2003.
15. Svetlichnaya N., YUnusov S. Invalidno‘y sport. Toshkent.2005.
16. Safarova D. D. Odam anatomiysi. Toshkent.2005.
17. Rambler: ru., Google., Yandex. Provayderlaridan Internet materiallari. Ziyonet .uz